جديد

2026-yil 30-oktyabr
№ 44 (148)
www.jadid.uz

Tilda, fikrda, ishda birlik!

Jadid

adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

@Jadidrasmiy @Jadidmediauz @Jadidrasmiy @Jadid_uz

“O‘zingga ishon! O‘z ustingda ishla! O‘z yurtingga munosib bo‘l!”

Shavkat MIRZIYOYEV

(Prezident Olimpiadasining tantanali ochilish marosimidagi nutqidan).

FAKT

✓ **O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Anqara shahrida Turkiyadagi vatandoshlarimiz bilan muloqot qildi.**

✓ **Turkiyaning nufuzli “Daily Sabah” nashri O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Markaziy Osiyoda yaxshi qo‘shnichilik va mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlashdagi o‘rniga bag‘ishlangan tahliliy maqola e’lon qildi.**

✓ **2016–2026-yillarda sportchilarimiz yirik xalqaro musobaqalarda 5 ming 518 ta medalni qo‘lga kiritgan bo‘lib, shundan 1 ming 675 tasi oltin.**

✓ **Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, yanvar–sentyabr oylarida O‘zbekiston sanoati hajmi 1 kvadrillion so‘mdan oshdi.**

YETTIKUNLIK

YANGI UFQ YOYIQLARIDA







Yurtimizda olib borilayotgan zalvorli islohotlar havosi o‘tgan yettikunlik qamrovida, ayniqsa, oydin ko‘rindi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning Qatar Amiri bilan muloqoti, kino ijodkorlari bilan uchrashuv, tibbiyot sohasini rivojlantirishga oid ko‘rib chiqilgan choralar, Prezident Olimpiadasining ochilishi va Markaziy Osiyo xalqaro ta’lim forumi ishtirokchilariga yo‘llangan tabrik – bularning har biri mamlakat taraqqiyotining alohida yo‘nalishlarini qamrab oladi. Ushbu voqealarning umumiy mazmuni shundaki, O‘zbekistonda iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar, inson kapitali va madaniy rivojlanish, shuningdek, tashqi siyosiy sheriklik o‘zaro bog‘liq holda ilgari surilmoqda.

Bularning bari O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o‘z xalqining taraqqiyoti va farovonligini, inson qadrini yuksaltirish, O‘zbekistonni xalqaro maydonda nufuzli mamlakatga aylantirish borasida tinimsiz izlanayotganini namoyish etadi.

QATAR BILAN MULOQOT

Hafta Prezidentimizning Qatar Davlati Amiri Shayx Tamim bin Hamad Ol Soniy bilan uchrashuvidan boshlandi. Bu O‘zbekistonning Yaqin Sharq va Ko‘rfazdagi arab davlatlari bilan siyosiy va iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishga qaratilgan tashqi siyosatining davomi bo‘ldi. Bunday muloqotlar savdo, investitsiya, energetika va gumanitar sohalardagi hamkorlik istiqbollarini muhokama qilish uchun muhim maydon yaratadi.

Ikki tomonlama uchrashuvlarning samarasi ularda bildirilgan niyatlarni aniq loyihalarga aylantirish bilan belgilanadi. Shu nuqtayi nazardan, Qatar bilan muloqot O‘zbekistonning tashqi iqtisodiy aloqalarini diversifikatsiya qilish va yangi sarmoya manbalarini jalb etish imkoniyatlarini kengaytirishi mumkin.

“O‘ZBEKFILM” MILLIY KINO BRENDIGA AYLANADI

Xalqimizning ma’naviy-ma’rifiy ongini yuksaltirishda, yosh avlodni vatanparvarlik, daxldorlik, yuksak axloq odob ruhida tarbiyalashda kino san’atining o‘rni beqiyos. U tarixiy xotirani saqlash, milliy qadriyatlar, til, an’ana va urf-odatlarni avloddan avlodga yetkazish, milliy o‘zlikni anglash tuyg‘usini shakllantirishga yordam beradi. Shunga yarasha, sohaga talab va e’tibor ham, tanqid va e’tiroz ham hamma davrda kun tartibida turgan.

(Davomi 2-sahifada).

ISLOHOT

ENG MUQADDAS VAZIFA


Bugun biz muhtaram Prezidentimiz, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni Shavkat Mirziyoyev rahbarligida taraqqiyotning yangi va yuksak bosqichi – Yangi O‘zbekiston mo‘jizasiga guvoh bo‘lib turibmiz. Tarixning har qanday burilish va sinovli damlarida xalqni birlashtiradigan, uni buyuk marralarga safarbar etadigan kuch Vatanga bo‘lgan cheksiz muhabbat va fidoyilikdir. O‘ttiz besh yil davomidagi mashaqqatli va sharafli yo‘limiz shuni ko‘rsatdiki, har qanday to‘siqlarni faqat va faqat jipslik, ahillik va bunyodkorlik ruhi bilangina yengib o‘tish mumkin.

TARIXIY O‘ZGARISHLAR

Dunyoda kun sayin kutilmagan xavf-xatarlar, ziddiyatli jarayonlar va iqtisodiy qarama-qarshiliklar kuchayib borayotgan murakkab sharoitda mamlakat xavfsizligini ta’minlash birinchi darajali vazifa sanaladi. Shu bois, Prezidentimizning uzoqni ko‘zlagan strategik dasturlari asosida mudofaa sohasida ham keng ko‘lamli, tarixiy o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Davlatimiz rahbari tomonidan joriy yilda mudofaa sohasini rivojlantirish va harbiy xizmat nufuzini oshirishga qaratilgan 23 ta tarixiy farmon va qaror imzolandi.

(Davomi 2-sahifada).

ILM YO‘LI



O‘zFA Mirzo Ulug‘bek nomidagi Astronomiya instituti direktori, akademik Shuhrat EGAMBERDIYEV bilan suhbat

ULUG‘BEK BAYROG‘I

– Domla, yoz oqshomlari yulduz sanamagan, ularni xayolan tutashtirib “rasm” chizmagan, “dumli yulduzlar”ga mahliyo bo‘lmagan bola bo‘lmasa kerak. Ammo millionlardan sanoqlilargina muazzam rasadxona-yu mo‘jizaviy teleskop qarshisiga yetib keladi, koinotning cheksiz puchmoqlariga nazar tashlaydi. Sizni astronomiya olamiga olib kirgan omillar nimalardan iborat?

(Davomi 6-sahifada).

ABADIYAT ORALAB

TIRIK SATRLAR

O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi homiyligida “Tirik satrlar” ruknida turkum kitoblar nashr etildi. Hayotdan erta ketgan bir guruh ijodkorlar qalamiga mansub bu to‘plamlarni o‘qir ekansiz, ularda jam bo‘lgan asarlar adabiyot olamidan mangu joy olgani va tirik yashayotganiga amin bo‘lasiz.

Bir paytlar atoqli hofiz ijrosidagi “Yor-yor” qo‘shig‘i xalqimiz orasida juda mashhur bo‘lib ketganini yoshi katta yurtdoshlarimiz yaxshi eslaydi.

Bu kech qo‘shni chorboqqa
Kelin tushdi, yor-yor.
Ilojim yo‘q bormoqqa,
Ko‘nikaman zor-zor.

Qo‘shiq matni shoir Asqar Qosim qalamiga mansub. Shoirning yangi chop qilingan to‘plami “Xayr” dema” nomi ostida kitobxonlarga taqdim etilmoqda.

(Davomi 5-sahifada).

BUGUNNING SHE’RI

Abdulla ORIPOV

Guldasta

Har qayda azizdir do‘st-u qardoshlar,
Musofir yurtda-chi, qadri ko‘p katta.
Keldi istanbullik bir guruh yoshlar
Mehmonning hurmati uchun, albatta.

Guldasta bor edi ular qo‘lida,
Rang-barang, anvoyi, g‘unchali, inju.
Marmara dengizin sohillarida
Ungan chechaklarning jamlanmasi bu.

Guldasta degani yaxlit degan gap,
O‘tdi xayolimdan turkiy ellarim.
Ajib bu hadyaning ko‘rkiga qarab,
Ochilib ketdi-ku qulfi dillarim.

Dedim: – Bu gul – O‘zbek, bunisi Turkdir,
Bunisi Ozardir, bunisi Qozoq.
Bunisi Bolqordir – boshida bo‘rkdir,
Bunisi Uyg‘urdir, bu – Qoraqalpoq.

Xullas, jam bo‘lishgan ularning bari,
Hammasi bir chaman, bitta guldasta.
Garchi turfa erur rangi, ifori,
Ular bir gulshanga bog‘liq, payvasta.

Mening gaplarimni tinglab shu asno
Kimdir lutf ayladi: – Kechiring, hojam,
Bizning guldastamiz yaxshi-ku, ammo,
Qo‘shsak yaxshiroqdir boshqalarni ham.

Dunyoning orzusin aytgan edi u,
Chindan kishilikning o‘zi guldasta.
Oh, inim, yer yuzin armonidir bu,
Shu sabab notinchmiz, yuraklar xasta.

MUJDA



QO‘SHCHINOR CHIROQLARI

Parkentga ko‘p yo‘lim tushgan. Bahorda Qiziltog‘ qizg‘aldoqzorlari, yozda So‘qoq, Zarkentdagi dam olish maskanlari, kuzda hazrat Ali buva ziyoratgohi, qishda Kumushkon manzaralari minglab mahalliy va xorijiy sayyohlarni o‘z bag‘riga chorlaydi. Lekin goh mehmon, goh muxbir bo‘lib yurib ham, tuman markazi yaqinida Qo‘shchinor degan xiyobon bo‘lganini eshitmagan ekanman.

O‘zbek tili bayrami nishonlanayotgan kunlarda Parkentda yangi ma’rifat markazining ochilish marosimiga taklif etildim. Tuman markaziga yetgach, Parkentsoyning o‘ng qirg‘og‘iga o‘tib, katta yo‘l bo‘ylab yuqorilab bordik. Yon-atrof mahalla – uy-joylar, do‘konlar. Qo‘l cho‘zsa yetgulik masofadan Chotqol tog‘larining g‘arbiy etaklari boshlanadi. Yangi bino quriladigan bo‘lsa, ortda qolayotgan tuman markaziga quriladi-da, deyman o‘zimcha. Yo‘l ulovni uchko‘cha kesishmasiga olib chiqdi, geolokatsiya yetib keldingiz, deb turibdi.

* * *

Shundoq mashinadan tushishim bilan musaffo osmon foni va iliq oktyabr quyoshi nurlarida yaraqlab turgan toqi baland darvoza va uning ortidagi muhtasham imoratga ko‘zim tushdi. Bog‘ va ma’rifat markazi Qo‘shchinor deb atalgan. Kiraverishdan chapda maskan nomiga asos bo‘lgan asriy chinorlar savlat to‘kib turibdi. Bir kishining qulochi yetmaydi, uch-to‘rt kishi kerak. Yoshiyam bir necha avlodlar umriga teng.

Ichkarilar ekanman, poytaxtda ko‘rib o‘rgangan xiyobonda yurganday bo‘ldim. Katta monitorlarda ibratli so‘zlar aylanib turibdi, bunaqasini viloyat markazi – Nurafshonda ham ko‘rmaganman. Xayolimni shundoq oyoq ostidan ko‘tarilgan suv ustunlari bo‘lib yubordi. Katta shaharlarda urf bo‘lgan yerpastak favvoraning ayni o‘zi edi bu. O‘ng tomonda soyabonli o‘rindiqlar, javonlar terib qo‘yilgan. Chap tomonda shinamgina kitobli tamaddixona.

(Davomi 5-sahifada).

YANGI UFQ YOYIQLARIDA

Boshlanishi 1-sahifada.

Istiqlol arafasida millatparvar shoir Muhammad Yusuf: “O‘zbekfilm, cho‘pchaging jonga tegdi!” deb she’r yozgani, mavzu ko‘cha-ko‘yda-yu dorilfununlarda jo‘shqin muhokama qilingani kechagidek yodimizda turibdi.

Bugun ham shiddat bilan rivojlanib borayotgan dunyo kino sanoati oldida bizning nufuzimiz nechog‘li degan savol jamoatchilikni tashvishga solayotgani bor gap. Shu ma’noda, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev “O‘zbekfilm” kinostudiyasida kino sohasi vakillari bilan uchrashib, milliy kinematografiyani rivojlantirish va sohaga zamonaviy boshqaruv usullarini joriy etishga qaratilgan takliflar bilan tanishgani ulkan ahamiyatga ega. Uchrashuvda keltirilgan ma’lumotlar kino sohasiga davlat tomonidan e’tibor izchil kuchayib borayotganini ko‘rsatadi. Jumladan, 2016-yilda filmlar ishlab chiqarish uchun davlat byudjetidan 10 milliard so‘m ajratilgan bo‘lsa, joriy yilda bu ko‘rsatkich 218 milliard so‘mga yetgani qayd etildi. Biroq, davlat mablag‘larining ko‘payishi o‘z-o‘zidan sifatli va tomoshabop filmlar barakasini anglatmaydi. Bu mablag‘lar samarali mexanizmlar asosida yo‘naltirilishi, ijodiy raqobatni kuchaytirishi va har bir loyihaning badiiy qiymati hamda jamoatchilikka ta’sirini oshirishga xizmat qilishi zarur.

Prezidentimiz tomonidan kino sohasini boshqarish, moliyalashtirish va film ishlab chiqarish vazifalarini aniq belgilash, Kinematografiya agentligi o‘rniga davlat siyosatini yuritish vakolatlarini Madaniyat vazirligiga o‘tkazish, vazirlikda Kino san’ati departamentini tashkil etish bo‘yicha bildirilgan tashabbuslar muhim ahamiyatga ega. “O‘zbekfilm”ning zamonaviy biznes modeli asosida ishlaydigan milliy kinokompaniya sifatida qayta tashkil etilishi, film ishlab chiqarishni xususiy sektorga o‘tkazish, loyihalarni tanlash, moliyalashtirish, targ‘ib qilish va xalqaro bozorlarga olib chiqish vazifalarini bir tizimga birlashtirish tashabbusi prinsipial yechimdir. Bu yerda gap faqat tashkiliy o‘zgarish haqida emas, balki kino sohasidagi munosabatlarning mazmunan yangilanishi, davlatning ijodiy jarayonga yondashuvi o‘zgarishi va xususiy sektor uchun keng yo‘l ochilishini anglatadi.

Bugungi tahlikali zamonda kinoning jamiyat hayotidagi o‘rni yanada ortib bormoqda. Prezidentimizning farzandlarimiz ongi va dunyoqarashini kim va qanday himoya qilishi haqidagi savolni o‘rtaga qo‘ygani bejiz emas. Milliy ma’naviyatni asrash, yosh avlodni vatanparvarlik, bag‘rikenglik, mehnatsevarlik va insonparvarlik ruhida tarbiyalashda kino san’ati muhim o‘rin tutadi. Shu ma’noda, Prezidentimiz ilgari surgan “O‘zligimizni anglab, o‘z hikoyamizni o‘z ovozimiz bilan dunyoga aytish” g‘oyasi milliy kinoning strategik yo‘nalishini belgilab beradi. Bugun ekranlarda faqat tarixiy shaxslar va o‘tmish voqealarinigina emas, shu bilan birga zamondoshlarimizning ham haqqoniy qiyofasini aks ettirishi kerak.

O‘qituvchi, shifokor, harbiy xizmatchi va quruvchi kabi kasb egalarining barchasi hayotiy va ta’sirchan filmlar uchun muhim mavzulardir.

Uchrashuvda “O‘zbekfilm” hududida yagona industrial klaster – “O‘zbekfilm kino shaharchasi”ni tashkil etish tashabbusi ham ilgari surildi. Zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlangan dublyaj va ovozlashtirish markazining barpo etilishi milliy kinoning texnik imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi. Bunday infratuzilma kino ishlab chiqarishning turli bosqichlarini bir makonda jamlash, mutaxassislar hamkorligini kuchaytirish, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish va xalqaro standartlarga mos mahsulotlar yaratish uchun muhim asos bo‘ladi.

Shu bilan birga, kino yaratishda sun’iy intellekt imkoniyatlaridan keng foydalanish bo‘yicha hamkorlik dasturini ishlab chiqish tashabbusi zamon talablariga mosdir. Sun’iy intellektdan foydalanish bilan birga mutaxassislarni tayyorlash, kasbiy ta’limni rivojlantirish, xorijiy tajribani o‘rganish va mualliflik huquqlariga rioya etish masalalariga ham e’tibor qaratish zarurligi ta’kidlandi.

TIBBIYOTNING QON TOMIRI

Prezidentimizning Ko‘ksaroy qarorgohida tibbiyot va farmatsevtika sohasi xodimlari bilan uchrashuvi xalqimiz salomatligini muhofaza qilish, kasalliklarning oldini olish va davolash ishlarini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish yo‘lida muhim voqea bo‘ldi. Negaki, inson hayoti va salomatligini asrash, umr sifatini yaxshilash ko‘p jihatdan tibbiyot tizimining samaradorligiga bog‘liq. Bunda zamonaviy tibbiyot muassasalari va ilg‘or texnologiyalar bilan bir qatorda, yuqori malakali mutaxassislar, sifatli tibbiy xizmat hamda har bir bemorga individual yondashuv ko‘rsatilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Uchrashuvda inson salomatligini asrash, ilg‘or ilmiy ishlanmalar va davolash usullarini joriy etishda o‘rnak bo‘layotgan tibbiyot xodimlari uchun “Ibn Sino” ordenini ta’sis etish taklif qilingani soha xodimlari ruhini ko‘tarib yubordi.

Sohada ta’lim, qurilish, sanitariya-gigiyena, bemorlar xavfsizligi va xodimlar madaniyatini qamrab oladigan “Yangi O‘zbekiston tibbiyot standartlari” joriy etiladi.

PREZIDENT OLIMPIADASI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 27-oktyabr kuni Olimpiya shaharchasida ikkinchi bor o‘tkazilayotgan Prezident Olimpiadasining tantanali ochilish marosimida ishtirok etdi. Musobaqa mamlakatimizda yosh sportchilarni qo‘llab-quvvatlash, iqtidorlarni kashf etish va ularni professional sportga yo‘naltirishda muhim o‘rin tutadi.

Prezidentimiz o‘z nutqida mamlakatimizda ommaviy sportdan professional sportgacha, iqtidorlarni saralashdan xalqaro musobaqalarga tayyorlashgacha bo‘lgan yaxlit tizim shakllanganini ta’kidladi. Prezident Olimpiadasi esa shu tizimning muhim bo‘g‘ini bo‘lib, yosh sportchilarga o‘z qobiliyatini namoyon etish va keyingi bosqichlarga yo‘l olish imkonini beradi.

Prezidentning “O‘zingga ishon! O‘z ustingda ishla! O‘z yurtingga munosib bo‘l!” degan da’vati musobaqaning mazmun-mohiyatini ifodalaydi. Prezident Olimpiadasi yoshlarni nafaqat g‘alaba uchun bellashishga, balki intizomli bo‘lishga, tinimsiz mehnat qilishga va yurt sha’nini munosib himoya etishga chorlaydi.

KELAJAKKA SARMOYA

Yurtimizda Markaziy Osiyo xalqaro ta’lim forumi o‘tkazilishi va Davlatimiz yetakchisining ishtirokchilarga yo‘llagan tabrigi mintaqamiz taraqqiyotida ta’lim va ilm-fan hamkorligi naqadar muhim o‘rin tutishini yana bir bor ko‘rsatdi. Bugun o‘zaro ishonch va yaxshi qo‘shnichilik mustahkamlanayotgan bir sharoitda ta’lim sohasidagi hamkorlik xalqlarimizni yaqinlashtiradigan, umumiy taraqqiyotga xizmat qiladigan muhim omildir.

Markaziy Osiyoning qariyb 85 millionlik aholisi, ayniqsa, bilimga chanqoq yoshlari mintaqamizning ulkan salohiyatini tashkil etadi. Bu salohiyatni ro‘yobga chiqarish uchun sifatli ta’lim, zamonaviy kasbiy ko‘nikmalar va ilmiy izlanishlarga keng yo‘l ochish zarur. Ta’limga kiritilgan sarmoyani yoshlar kelajagi va mintaqaning raqobatbardoshligiga kiritilgan sarmoya sifatida baholash o‘rinlidir.

O‘zbekistonda maktabgacha va maktab ta’limi, kasbiy va oliy ta’lim hamda ilm-fan boshqaruvini yagona tizimga birlashtirishga qaratilgan islohotlar ta’lim bosqichlari o‘rtasidagi uzviylikni ta’minlashga xizmat qiladi. Bolaning ilk ta’limidan tortib malakali mutaxassis va olim bo‘lib shakllanishigacha bo‘lgan jarayonni yaxlit yondashuv asosida tashkil etish jamiyatning intellektual salohiyatini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Ayni paytda ta’limning vazifasi faqat bilim berish bilan cheklanmasligi kerak. Tez o‘zgarayotgan mehnat bozori yoshlardan mustaqil fikrlash, ijodkorlik, mas’uliyat va umr davomida o‘rganish qobiliyatini talab qilmoqda. Shuning uchun o‘qituvchi va murabbiylar salohiyatini oshirish, ta’lim mazmunini yangilash, maktab, texnikum, universitet va ishlab chiqarish o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

TDT HAMKORLIGI

2026-yil 29-30-oktyabr kunlari Anqarada bo‘lib o‘tayotgan Turkiy davlatlar tashkilotining 13-sammiti hamkorlikni siyosiy va madaniy yaqinlikdan amaliy iqtisodiy integratsiyaga olib chiqish nuqtayi nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, sammit kun tartibida savdo, transport-logistika, energetika, raqamlashtirish, turizm va madaniy-gumanitar aloqalarni yanada kengaytirish masalalari o‘rin olgan. Anqara shahridagi sammitda va uning doirasidagi tadbirlarida mamlakatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ham ishtirok etyapti.

Sammit arafasida Turkiy dunyo uchun yagona elektron tijorat platformasini yaratish bo‘yicha kelishuvga erishilgani ham muhim. Agar platforma ishga tushsa, kichik va o‘rta biznes uchun mintaqaviy bozorlarga chiqish yengillashishi mumkin. Ammo buning uchun to‘lov tizimlari, yetkazib berish, bojxona tartiblari va iste’molchilar huquqini himoya qilish qoidalarini ham muvofiqlashtirish talab etiladi.

Anqarada o‘tkazilayotgan sammit va qabul qilinadigan “Anqara deklaratsiyasi” hamda “Turk dunyosi nigohi – 2040” strategiyasi doirasidagi ustuvor vazifalar hamkorlikning keyingi yo‘nalishlarini belgilashi mumkin. O‘zbekiston uchun sammit eksport imkoniyatlarini kengaytirish, qo‘shma ishlab chiqarishni rivojlantirish va transport aloqalarini kuchaytirish uchun qulay maydon bo‘ladi.

Sammit turkiy xalqlarning birligi, hamjihatligi va milliy irodasini dunyoga namoyish etadigan tadbir bo‘lishiga shubha yo‘q.

Shuningdek, Turkiy davlatlar tashkiloti mamlakatlari o‘rtasida barcha yo‘nalishlardagi hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqish va muhim tashabbuslarni ilgari surish qardosh turkiy xalqlarni bir-biriga yanada jipslashtiradi hamda o‘zaro manfaatli munosabatlarni rivojlantirishga katta hissa qo‘shadi.

Iqbol MIRZO

ENG MUQADDAS VAZIFA

Boshlanishi 1-sahifada.

Xususan, havo hujumidan mudofaa qo‘shinlari va harbiy havo kuchlari tubdan transformatsiya qilinib, jahon standartidagi jangovar qo‘mondonlik tashkil etildi.

Qisqa davr ichida Qurolli Kuchlarni rivojlantirish borasida eng muhim amaliy ishlar bajarilib, tom ma’noda, Yangi O‘zbekistonning yangi armiyasi barpo etildi. Bugungi kunda milliy armiyamiz zamonaviy qurolli to‘qnashuvlar tahlili hamda yetakchi

> **Biz bugun kechagidan kuchlimiz. Nasib etsa, ertaga bundan ham kuchli bo‘lamiz.**
>
> **O‘ttiz besh yillik mustaqil taraqqiyot yo‘limiz bizga bir haqiqatni o‘rgatdi: xalq va davlat yagona maqsad yo‘lida birlashib, astoydil harakat qilsa, zabt etib bo‘lmaydigan marraning o‘zi yo‘q.**
>
> **Bunday buyuk qudratga ega xalq va davlatni yenga oladigan kuchning o‘zi yo‘q.**
>
> **Biz yagona Vatan, yagona xalq bo‘lib, yangi hayot va buyuk kelajagimizni birgalikda barpo etamiz!**
>
> **Shavkat MIRZIYOYEV**
>
> *(Mustaqillik bayrami tabrigidan).*

armiyalar tajribalari asosida izchil rivojlanmoqda. Qo‘shinlarning jangovar salohiyatini yanada oshirish maqsadida uzoq masofaga otuvchi artilleriya, uchuvchisiz aviatsiya tizimlari, o‘qotar qurollar, shuningdek, jangovar, maxsus va avtomobil texnikalari bilan to‘liq butlanmoqda. Mamlakat havo sarhadlarining ishonchli himoyasini ta’minlash yo‘lida qo‘shinlar eng zamonaviy aviatsiya texnikalari va havo hujumidan mudofaa tizimlari bilan ta’minlanmoqda. Ushbu yuqori texnologiyali harbiy texnikalarni muvaffaqiyatli ekspluatatsiya qilish uchun harbiy xizmatchilarimiz rivojlangan xorijiy davlatlarda maxsus ta’lim kurslarini o‘tab qaytayotir.

Mudofaa vazirligi qo‘shinlarining operatsion yo‘nalishlarda taktik, operativ-taktik va strategik vazifalarni qay darajada bajarishi doimiy sinovdan o‘tkazilmoqda. Bu jarayonda qo‘shinlarni desantlashtirish, havo-desant qo‘shinlarini qo‘llash, temir yo‘l va havo transportida tashish, uzoq masofalarga marshlar uyushtirish, razvedka olib borish, jumladan, uchuvchisiz uchoqlarni qo‘llagan holda, aviatsiya, artilleriya, tank va boshqa qurollardan jangovar otishlarni o‘tkazish amaliy tarzda bajarilmoqda. Natijada jangovar shaylik tadbirlari o‘tgan yillarga nisbatan bir necha marotaba ortdi. Bu kabi amaliy tadbirlar tufayli, pirovardida, xalqaro maydonda ham harbiy qudratimiz e’tirof etilib, jahon reytingida milliy armiyamiz o‘tgan yilga nisbatan 5 pog‘ona ko‘tarilib, 145 ta davlat orasida 53-o‘rinni egalladi. Bir so‘z bilan aytganda, Qurolli Kuchlarimiz tezkor, ixcham va har qanday tahdidlarga munosib zarba berishga qodir jangovar kuchga aylandi.

INSTITUTSIONAL ISLOHOTLAR

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mudofaa vazirligi harbiy kadrlarni tayyorlash tizimini transformatsiya qilish to‘g‘risida”gi qarori mamlakatda harbiy ta’limning mutlaqo yangi modelini yaratdi. Bu qaror asosida strategik qadam tashlandi, ilg‘or xorijiy tajribalarni milliy sharoitga mos integratsiya qilish jarayonida O‘zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti tashkil etildi. Universitet 5 ta institut, 4 ta fakultet, 6 ta okrug o‘quv fakulteti, 20 ta o‘quv markazi hamda Serjantlar tayyorlash oliy maktabini o‘z ichiga oladi. Bu keng qamrovli tuzilma turli darajadagi mutaxassislarni sifatli, tizimli va uzluksiz tayyorlashni ta’minlamoqda.

Harbiy ta’lim tizimini takomillashtirish doirasida bakalavriat va magistratura bosqichlarida o‘qitish hamda shtab ofitserlarini tayyorlashning mutlaqo yangi modeli joriy etildi. Jumladan, universitetda serjantlar uchun bakalavriat yo‘nalishida masofaviy ta’lim yo‘lga qo‘yildi. Bu orqali harbiy xizmatdan uzilmagan holda chaqiriqqacha harbiy ta’lim, psixologiya, IT, sun’iy intellekt va kiberxavfsizlik kabi 7 ta mutaxassislik bo‘yicha oliy ma’lumot olish imkoniyati yaratildi.

Mudofaa vazirligi oliy harbiy ta’lim muassasalari faoliyati zamon talablari va standartlari asosida yanada yaxshilanib, intellektual jihatdan yetuk, strategik fikrlay oladigan kadrlarni tayyorlashga urg‘u berilmoqda. Ofitserlarning jangni rejalashtirish va boshqarish bo‘yicha ko‘nikmalarini rivojlantirish, tizimni raqamlashtirish, axborot xavfsizligini ta’minlash asosiy maqsad etib belgilangan. Harbiy san’at shiddat bilan o‘zgarib borayotgan hozirgi kunda oliy harbiy ta’lim muassasalari harbiy kadrlarning jismoniy tayyorgarligi va g‘oyaviy-mafkuraviy immunitetini oshirish, IT va zamonaviy texnologiyalarni qo‘llay oladigan, tezkor qaror qabul qilish qobiliyatiga ega ofitserlarni tayyorlash borasida qator tadbirlarni amalga oshirmoqda. Turli tahdid va xavflarni hamkorlikda bartaraf etish maqsadida, kuch tuzilmalari bilan birgalikda oliy harbiy ta’lim muassasalarining kursant va tinglovchilari o‘rtasida bir qator qo‘shma qo‘mondonlik o‘quvlari va boshqa shaylik mashqlari o‘tkazilmoqda.

HAL QILUVCHI KUCH

“Bizning eng katta boyligimiz – ertangi kunimizning hal qiluvchi kuchi bo‘lgan Yangi O‘zbekiston yoshlaridir”. Davlatimiz rahbari bu fikrni bejiz alohida e’tirof etmagan, chunki bugungi kunda yurtimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarning markazida aynan yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularning zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni egallashi hamda o‘z salohiyatini to‘la yuzaga chiqarishi uchun zarur sharoitlar yaratish ustuvor vazifa etib belgilangan. Buning uchun har yili 20-25 trillion so‘m mablag‘ yo‘naltirilayotgani kelajak taraqqiyotimizning muhim kafolatidir.

Yosh avlodni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va ularning hayotda o‘z o‘rnini topishini ta’minlash maqsadida Mudofaa vazirligi qo‘shinlarida ham qator istiqbolli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, askarlarni muddatli harbiy xizmat davrida oliygohlarga tayyorlash hamda “Bitta askar – bitta kasb” tamoyili asosida kasbga o‘qitish tizimi yo‘lga qo‘yildi. Qisqa davrda 938 nafar askar muddatli harbiy xizmat davridayoq 51 ta nufuzli oliygohga o‘qishga qabul qilindi, 10 mingdan ortig‘i esa kasb sertifikatiga ega bo‘ldi.

Prezidentimizning “O‘quvchi-yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorlash tizimini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq, o‘quvchilarda harbiy-vatanparvarlik ruhini kuchaytirish hamda fan o‘qituvchilarining kasbiy salohiyatini oshirishning yaxlit tizimi ishlab chiqildi. Fan o‘qituvchilarining shtat birliklari Mudofaa vazirligiga o‘tkazilib, ularni qayta tayyorlash, moddiy rag‘batlantirish tizimi takomillashtirildi. Har bir tumanda bittadan “Jasorat maktabi” faoliyati tashkil etildi. Bugungi kunda 300 mingdan ortiq yoshlarni o‘zida birlashtirgan “Vatan tayanchi” harakati ham navqiron avlodni harbiy-vatanparvarlik, milliy g‘oya va qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalashda o‘ziga xos o‘rin tutmoqda.

MANZILLI IJTIMOIY HIMOYA

Harbiy xizmatchilar va ularning oila a’zolarini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash – davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Shu maqsadda ofitserlarga to‘lanadigan oylik ustama 2 barobarga, serjantlarning oylik pul ta’minoti esa 10 foizga oshirildi. Mudofaa ishlari organlari xodimlarining ish haqi 70 foizga, Toshkent va Samarqand shaharlarida ijara kompensatsiyasi 25 foizga ko‘paytirildi.

Bundan tashqari, harbiy xizmatchilarning 858 nafar farzandi imtiyozli tavsiyanomalar asosida nufuzli oliy o‘quv yurtlariga qabul qilindi. 2018-yildan buyon joriy etilgan mazkur imtiyozlar orqali jami 6500 nafardan ortiq harbiylarning farzandlari talabalik baxtiga sazovor bo‘ldi.



Botir QUDRATXO‘JAYEV,
O‘zbekiston Respublikasi mudofaa vaziri, general-mayor

MILLIY YUKSALISH VA TASHQI SIYOSAT

Prezidentimiz tomonidan davlatimiz oldiga qo‘yilgan maqsadlar ko‘lami nihoyatda keng. Xususan, yaqin o‘n yillikni chinakam milliy yuksalish davriga aylantirish uchun ilgari surilgan yettita milliy dasturni inson qadrini ustuvor qo‘yuvchi strategik qadamlar, desak, aslo mubolag‘a bo‘lmaydi. Bilim va malakani asosiy kapitalga aylantirish, sog‘lom turmush tarzini ta’minlash, iqtisodiyotimizni yuqori texnologiya va mehnat unumdorligi modeliga o‘tkazish yoki ekologik muammolarni hal etish – bularning barchasi bir umumiy maqsadga – xalqimizning tinch va farovon hayotini kafolatlashga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, baland marralarga erishishning yana bir muhim sharti bor, bu jamiyatdagi tinchlik, totuvlik va o‘zaro ishonchdir. Bugun yurtimizda turli millat va konfessiya vakillarining bir oila farzandlaridek ahil yashayotgani jamiyatimizning ko‘pmillatli va bag‘rikenglikka asoslangan yuksak ma’naviy qiyofasini o‘zida namoyon qiladi. Shukronalik va bag‘rikenglik tuyg‘usi hukmron bo‘lgan joyda esa tom ma’nodagi taraqqiyot bo‘ladi.

E’tiborli jihati, bu tinchlik va pragmatik yondashuv faqat ichki siyosat bilan cheklanib qolmayapti. O‘zbekistonning ochiq va tinchlikparvar tashqi siyosati, mintaqamizdagi do‘stona aloqalar, global miqyosdagi nufuzli tashabbuslar yurtimizning xalqaro maydondagi obro‘sini yanada yuksaltirmoqda. Mamlakatimiz 2027–2029-yillarda Qo‘shilmaslik harakatiga ilk marotaba raislik qilib, global tuzilma samaradorligini oshirishga qaratilgan tashabbuslarni faol ilgari suradi. Qo‘shnimiz Afg‘oniston bo‘yicha konstruktiv siyosatimiz ham qat’iy davom ettirilmoqda. Belgilab olingan muhim dasturlar, kuchli ijtimoiy siyosat va mustahkam tinchlikka asoslangan yo‘l xalqimizning ertangi kunga bo‘lgan ishonchini yanada mustahkamlaydi. Bu esa Yangi O‘zbekistonning yorug‘ kelajagi va barqaror taraqqiyotini ta’minlovchi eng qudratli kuchdir.

ERTAGA BUNDAN HAM KUCHLI BO‘LAMIZ!

Bugungi notinch va tahlikali zamonda mustaqilligimiz, osoyishtaligimiz har narsadan afzal ekani yaqqol sezilmoqda. Bu tinch va farovon hayotning qadriga yetish har birimizning muqaddas burchimizdir. Bu borada mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar qatorida harbiy sohada erishilgan yutuqlar, Qurolli Kuchlarimizning moddiy-texnik bazasi tubdan yaxshilanib, zamonaviy talablar darajasiga ko‘tarilgani yurtimiz himoyasi ishonchli qo‘llarda ekanini ko‘rsatadi. Bu jarayonda Vatanni ko‘z qorachig‘idek asrab qo‘riqlayotgan, o‘z hayotini o‘rtaga qo‘ygan vatanparvar, mard o‘g‘lonlarimizning fidoyi xizmati cheksiz hurmat va e’tirofga loyiqdir.

Istiqlolimizni, xalqimizning farovon hayotini, yurtimiz tinchligini mardona qo‘riqlayotgan fidoyi harbiylarimiz Prezidentimiz, Qurolli Kuchlarimiz Oliy Bosh Qo‘mondonining doimiy g‘amxo‘rligini his qilib, bugungi farovon hayotimizning qadriga yetib yashamoqda. Shunday ekan, Mustaqillik ne’matiga shukronalik keltirgan holda, ezgu maqsadlar sari olg‘a qadam qo‘yar ekanmiz, tinchlik va barqarorlikni ko‘z qorachig‘idek asrab-avaylash barchamiz uchun eng muqaddas vazifa bo‘lib qoladi.

MA’NAVIY HAYOT

HAM QARZ, HAM FARZ

Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi rahbari, siyosiy fanlar doktori Otabek HASANOV bilan suhbat

– Ulug‘ jadid Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanida Otabek Shamayga borib-kelgach, talabga javob bermay qolgan ma’muriy tartibotni yangilash ishqida yonadi. Gapning nishabi ismingizga qarab ketayotganini sezgandirsiz. Suhbatni noodatiy savoldan boshlamoqchiman: agar Sizga ma’rifatparvar bobolarimiz bilan zamondoshlik nasib qilganida, qaysi jadidning etagini tutgan bo‘lar edingiz yoki ularning qaysi tashabbuslariga bosh qo‘shardingiz?

– So‘zni eng sevimli kitobimdan boshladingiz. “O‘tkan kunlar”ni o‘n marta o‘qidim esimni taniganimdan buyon. Har gal yangi bir ma’no, fakt va hikmat olaman. Savolga keladigan bo‘lsak, jadidlarning “Ko‘mak” loyihasi meni doim hayratga solib keladi. Tasavvur qilaylik: XX asrning birinchi choragida Germaniyada o‘qimoqchi bo‘lgan boshqalarning farzandlari uchun Chorsu bozorida xalqdan pul so‘rab yurishgan. “Ey, musulmonlar, ertaga ular kelib hayotimizni o‘zgartiradi. To‘ylardagi xarjni kamaytirib, isrofdan qochib, shu aqchalarni kelajagimiz uchun beraylik. Ilm olish – o‘g‘il bo‘lsin, qiz bo‘lsin, har bir musulmonga farz”, deya boylarning xonadonlariga, majlislariga kirib borgan. O‘zi uchun emas, bolasi uchun emas, xalqning bolasi uchun jon kuydirgan. Jadidlar bilganki, dunyoning ilg‘or davlatlari tajribasini o‘rganmasak, Vatan va xalq istiqboli mavhumlikda qoladi.

Endi bir gap aytay, muhtaram Prezidentimiz 2018-yilda “El-yurt umidi” jamg‘armasini tashkil etish haqidagi farmonga imzo chekdi. Davlatimiz rahbari o‘sha vaqtdayoq taraqqiyot ufqimizga nazar tashlay olgan, uning asoslaridan biri sifatida jadidlar yo‘lini tutgan. Bir raqam keltiraman, mazkur Jamg‘arma orqali 2018–2025-yillarda 2300 nafarga yaqin stipendiat 45 ta mamlakatga ta’lim olishga yuborilgan. Bu hali hammasi emas, bugungi kunda 1400 nafardan ortiq bitiruvchi O‘zbekistonga qaytib kelib, iqtisodiyot, ta’lim, fan, tibbiyot va davlat boshqaruvi sohalarida faoliyat yuritmoqda. Mana sizga natija, mana, behbudiylar, fitratlar, cho‘lponlarning ushalmagan orzulari bir asr o‘tib ro‘yobga chiqmoqda. Quvonarlisi, bu jarayon davom etmoqda, ayni vaqtda 740 nafardan ortiq stipendiat TOP-300 talik reytingiga kiruvchi universitetlarda tahsil olmoqda. Agar jadidlar bilan bir davrda yashaganimda, ana shu “Ko‘mak” harakatiga qo‘shilgan bo‘lardim.

Bilasiz, jamiyatda onaning o‘rni beqiyos. Buyuklarning kamolotida bosh sababchilar onasi, turmush o‘rtog‘i bo‘lgan. Amir Temur bejiz Oqsaroyni onasi Takina xotunga atab qurdirmagan. Xotin-qizlar ta’limiga davlat siyosati darajasida e’tibor berilayotgani xalqda ham uyg‘onishni, sergaklikni keltirib chiqardi. “Qiz bola o‘qib, shahar olib berarmidi?” degan gap urfdan qoldi. Quvonarlisi, bugun o‘qigan qizlar safiga o‘qigan kelinlar, o‘qigan onalar qo‘shilyapti. Endi oliy ta’lim qo‘l yetmas uzoq manzil emas. Davlatimiz rahbari ayollarga ma’rifat dargohlarining yo‘lini yaqin va ravon qilib, darvozasini keng ochib berdi. Bir misol: 2016-yilgacha magistraturada xotin-qizlarning ulushi 20 foizga ham yetmasdi, bugun 57 foizga o‘sibdi.



Jadidlar Olmoniyaga talaba yuborayotganda, Maryam Sultonmurodova, Xayriniso Majidxonova kabi qizlarni ham bekorga tanlamagan. Dunyo ko‘rgan xotin-qizlar ertaga dunyoqarashi keng avlodni tarbiyalashini ular yaxshi bilgan. Shuning uchun ham “Ko‘mak” loyihasi asoschilari va ishtirokchilari xotirasi oldida doim ehtirom bilan bosh egaman.

– Otabek aka, tan olish kerakki, bir necha yil avval ma’naviy-ma’rifiy soha faoliyatini keng jamoatchilikka yetkazish, uning ahamiyatini yoshlar ongiga singdirish borasida muayyan muammolar mavjud edi. Bugun esa bu yo‘nalishda yangi yondashuvlar va tashabbuslarni ko‘ryapmiz. Sizningcha, jamiyatda ma’naviy qadriyatlarni mustahkamlash, milliy o‘zlikni anglash va yoshlarning ma’naviy dunyoqarashini boyitishda Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazining o‘rni va hissasi qanday?

– Xalq o‘ziga mavhum va hayotidagi ahamiyatini anglamagan sohalarga e’tibor bermaydi, undan o‘zini tortadi. Ochiq aytish kerak: odamlar ilm-fan, ma’naviyat va ma’rifat, adabiyot va san’at haqida o‘ylashi uchun bu sohalarning jamiyat rivojidagi o‘rnini tushuntirib berish, ma’naviy hayotga e’tibor qaratishi uchun moddiy hayotini ham yo‘lga qo‘yish kerak edi. 2017-yilda boshlangan islohotlar yuqoridagi barcha muammoga bosqichma-bosqich yechim berib bordi. Prezidentimiz Yoshlar kunida: “Bilinglar, endi davlatlar hududi bilan emas, bilimi bilan, aholi soni bilan emas, texnologiyasi bilan, tabiiy boyliklari bilan emas, inson kapitali bilan raqobatga kirishmoqda. Bilim, ilm-fan va tafakkur mahsuli bo‘lgan yangi “Bilimlar iqtisodiyoti” hal qiluvchi kuchga aylanib bormoqda”, deya Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining asosini yana bir bor ta’kidladi.

Bu jarayonda ma’naviyat va ma’rifatning ham o‘z o‘rni, vazifalari bor. So‘nggi yillarda Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi “xalq bilan muloqot”, “inson qadri uchun” prinsiplari asosida xalq ichiga kirib bordi. Ayniqsa, yoshlar bilan ishlashda tashabbuskorlikni yoshlarning o‘ziga ishondik. Eng muhimi, Markaz ma’naviyatni shunchaki targ‘ib qilish emas, balki uni inson qalbi, tafakkuri va kundalik hayotining ajralmas qismiga aylantirish yo‘lida izchil harakat qilmoqda. Hususan, “Maromiylik” umummilliy harakati”, “Milliy qadriyatlarga asoslangan davlat xizmati” hamda “Yangi O‘zbekiston – stereotiplardan holi mamlakat”, “Muzeylararo 90 kun”, “Maromiylik loyihasi”, “Mustaqillik to‘yi” loyihalari tizimli ravishda amalga oshirilmoqda.

Lekin agar yoshlar bizga yangi taklif bilan keladigan bo‘lsa, ularni qo‘llab-quvvatlashga doim tayyormiz. Aholimizning oltmish foizi yoshlar. Ular ijtimoiy tarmoqlarga kuniga ikki soatdan to‘rt soatgacha vaqt sarflaydi. Demak, bizning ham ish maydonimiz tarmoqlarda. Hozir ijtimoiy tarmoqda o‘nga yaqin loyihani amalga oshiryapmiz.

Aholi farovonligi oshgani sari, o‘zingiz ham sezgan bo‘lsangiz kerak, kitobxonlikka, adabiyotga e’tibor ortib boryapti. Instagram, facebook, yutubni kuzatsangiz, faqat shou-biznes vakillari yoki ko‘ngilochar vaynerlar sahifasi emas, shoir-yozuvchilar, bukblogerlar, nashriyotlarning sahifalari ham gavjum. Millionlab ko‘rishlar soniga ega bo‘lyapti mutolaa va she’riyat sahifalari. Demak, bunga ehtiyoj bor. Nega endi ana shunday yoshlarni topib, loyihalarimizga jalb qilmasligimiz, ularni moddiy rag‘batlantirmasligimiz kerak? Buning uchun bizda barcha sharoit muhayyo. Shu maqsadda “So‘z” loyihasini yo‘lga qo‘ydik. Markaz qoshida “Oyina.uz” sayti faoliyat yurityapti. Bugun “So‘z” nafaqat yosh ijodkorlarni, balki o‘n minglab o‘quvchilar auditoriyasini birlashtiryapti.

– Bugun o‘z faoliyatingiz yuzasidan vijdoningiz bilan hisoblashib turasizmi?

– Ma’naviyat sohasining ma’lum chegarasi va aniq qolipi yo‘q. So‘zning o‘zaki “ma’no”. Demak, bu soha hayotga yangi ma’nolar berishga xizmat qilishi kerak. Qolaversa, ma’naviy-ma’rifiy ishlarning natijasi birdan ko‘rinmaydi. Bu yillar davomida, avlodlar kamoloti va almashinuvi fonida ko‘zga tashlanadi. Shunday bo‘lsa ham, odam o‘zini o‘zi taftish qilib turishi kerak. Har kuni kechqurun vijdonimga hisobot beraman. O‘zimga savollar qo‘yib, javobini axtaraman: “Bugun lavozimda o‘tirib, shunga loyiq ish qildimmi, yo‘qmi?”, “Bugun o‘z ustimda ishlashga imkoniyat bo‘ldimi?”, “Bugun ota-onamga qo‘ng‘iroq qildimmi, farzandlarim bilan gaplashdimmi?”, “Bugun ichki xotirjamligim, ruhiy holatim qanday?” Shu tariqa o‘zimni savol-javobga, vijdon oldida hisobotga o‘rgatganman. Buni o‘n yil oldin Is’hoq Adizesning “Liderlik san’ati” kitobida o‘qib, o‘zimga odat qilib olganman.

– Yangi va katta ishlarni boshlash – bir masala, yaxshi ishni odatga aylantirish esa yana bir masala. Ishga energiyani qayerdan olasiz?

– Har kuni ertalab ota-onam bilan qo‘ng‘iroqlashaman. Kechqurun uyga borganda, farzandlarim bilan vaqt o‘tkazaman.

– Ijtimoiy tarmoqlar rivojlanar ekan, yoshlar orasida motivatorlar, psixologlarning chiqishlariga ham ehtiyoj kuchayib ketdi. Xorijlik mualliflarning bu boradagi kitoblari katta to‘lqin bilan tarjima qilindi. Mahalliy motivatorlarning gap-so‘zlarida ham aynan chet el mualliflarining iqtiboslari ustunlik qiladi. Shunday bir sharoitda maydonga muallifligingizdagi “Liderlar kitobi” kirib keldi. Bu ham milliy kontentning bir namunasi deyishimiz mumkin.

– Yaxshi mavzuni ochdingiz. Bugun jarangdor qilib “motivatsiya” deb aytayotganimiz o‘zimizda ruhlantirish, ko‘nglini ko‘tarish, ilhomlantirish degan gap. Bu yangi avlodga yangilikday tuyilishi mumkin. Siz aytganday, faqat tarjimalar asosida motivatorlik qilayotganlarni ko‘rib uka-singillarimizda “Hokimiyat, motivatsiya, boylik va psixologiyaga oid asarlar faqat G‘arbda yozilgan ekanda”, degan tasavvur paydo bo‘lishi mumkin. Chunki biz o‘z ma’naviy xazinamizni chet mualliflarnikiday as’asa-yu dabdaba bilan, auditoriya qiziqishlariga mos rakursda taqdim etishga ko‘p ham qo‘l urmaymiz.

Masalan, Makiavellining “Hukmdor”ini ko‘pchilik eshitgan, o‘zimizda esa “Temur tuzuklari”, “Siyosatnoma”, “Qutadg‘u bilig”, “Qobusnoma” turibdi. Yoki Ilon Mask, Stiv Jobs, turli davlatlarning rahbarlari haqidagi biografik asarlarni qayta-qayta chop etamiz. Buyam kerak. Lekin “Boburnoma”day haqqoniy va hayotiy asarni kim yozolgan ekan tarixda? Xondamirning Navoiyga bag‘ishlangan “Makorim ul-axloq”idan o‘tib kimni o‘rganishimiz mumkin? “Alpomish” yoki “Farhod va Shirin” dostoni beradigan ruhlantirishni qaysi motivator berar ekan?

Bu yerda masalaga shunday yondashish kerak: biz sanagan va sanamagan boshqa qimmatli manbalarni yoshlar talab qilayotgan ilhomlantiruvchi rakursda taqdim etish zarur. Ana shunda o‘z tariximiz va o‘z adabiyotimizda ham jahon o‘rgansa arzigulik bilimlar borligini ko‘ramiz.

“Liderlar kitobi” ham mana shu yo‘ldagi istaklardan yaralgan asar. Karantin paytida o‘zbek va jahon mualliflarining yetakchi uchun zarur deb hisoblangan 35 ta kitobini jamlab, o‘qib chiqdim. Ular orasida Aflotun, Arastu, Suqrotdan tortib, Nizomulmulk, Amir Temur, Boburgacha, Makiavellidan Stiv Jobsgacha bor edi. O‘qib tugatganimdan keyin, energiyam ko‘payib ketdi. O‘qiganlarimdan olgan xulosalarimni yozish ehtiyoji tug‘ildi. Boshida blogga yozishni boshladim. Qarasam, o‘quvchilar soni oshib ketdi. Dadam “Endi buni to‘plab, sayqal berib kitob qilgin”, dedi. Ikki oyda qo‘lyozma tayyor bo‘ldi. Asosiy maqsadim, kitob hammaga tushunarli bo‘lishi edi.

– Kitobning keyingi davrda ommalashuvi mehnatning natijasini ko‘rsatib turibdi. Tabiiyki, muvaffaqiyatli asarning davomi doim kutilgan. Ikkinchi jild haqida o‘ylab ko‘rdingizmi?

– Albatta. “Liderlar kitobi”ning ikkinchisini deyarli yozib tugatganman. Bu kitob ko‘proq amaliyotga asoslangan. Hozircha ko‘nglim to‘lmayapti. Uch-to‘rt qayta o‘qib chiqdim, yana to‘g‘rilayman. Yaqinda poytaxtimizdagi 299-maktabga bordim. Qarangki, 10-11-sinf o‘quvchilarining hammasi o‘qib chiqqan ekan kitobimni, hayron qoldim. Ular, biz hayotga kirib kelyapmiz, lekin o‘zimizga namuna qilib oladigan hayotiy ustoz topa olmayapmiz, bizga ana shunday kitoblarni tavsiya qiling, deyapti.

Hozir “Kyelajak liderlari uchun” degan kitob ustida ham ishlayapman. Biz qahramon qidirib doim ham chet elga boqishimiz kerak emas. Agar muvaffaqiyatli shaxsning hayotini o‘rganish va namuna olish kyerak bo‘lsa, yoshlarga doim aytaman, Prezidentimizning faoliyatini kuzatib boring, kun tartibidagi uchrashuvlar, yig‘ilishlar mundarijasini ko‘ring, xalq bilan muloqotini diqqat bilan tinglang. Katta maktab bo‘ladi bu.

Kitob yozish masalasida shunday rejalarimiz bor.

Yoshlarni tushunishimiz kerak. Davlatimiz rahbari bir yilda bir necha marta shaxsan yoshlar bilan uchrashadi, hududlardagi tashriflarda ham aynan yoshlar bilan muloqotga vaqt ajratadi. Yana bir tomoni bor: Prezident matbuot xizmati suratlarini ko‘rib borsangiz, Shavkat Mirziyoyev davlat rahbarlariga, xalqaro tashkilot kotiblariga kitob sovg‘a qilayotganini, tashriflar davomida kutubxonalar, universitetlar, madaniyat maskanlaridagi kitoblarni qo‘liga olib ko‘rayotgani aks etgan kadrlarni ko‘rasiz. Bu shunchaki chiroyli rakurs emas. Davlat rahbariga mana bu kitobni ushlab tursangiz, deb fotograf aytmaydi. Prezidentimizning o‘zi qiziqadi bugungi kitoblar saviyasi, bugungi kutubxonalar fondi bilan. Yurtboshimiz qo‘lida kitob tutib, uni o‘qib turibdi ekan, bu ota-onalar va yoshlar ongostiga signal yuboradi.

– Yoshlar mavzusiga to‘xtaldingiz. Ularga yana qanday tavsiyalaringiz bor?

– Bir hisobdan bugungi yoshlarga oson emas. Chunki ularni chalg‘ituvchi vositalar juda ko‘p. Agar meniyam 16 yoshimda ijtimoiy tarmoq, instagram, yutub, short reels videolar bo‘lganda men ham qiyin vaziyatda qolardim. Bugun telefonning orqasida juda katta kuch turibdi, dunyoning manaman degan psixologlari, olimlari qanday qilib bo‘lsa ham o‘z qamrovida tutib qolishga harakat qilyapti. Albatta, bu harakat zamirida moddiy manfaat, ya’ni, biznes yotibdi. Ba’zi yoshlar bu kuch oldida ojizlik qilyapti. Lekin umum yoshlar haqida bu fikrni aytish noto‘g‘ri. Chunki yaqinda shaxmat bo‘yicha olimpiada birinchiligini qo‘lga kiritgan yoshlarimizni oling, eng kattasi 21 yosh! Yoki Osiyo paralimpiya o‘yinlaridagi yutug‘imizni ayting! 10-sinf bolasi “Kelajak bunyodkori” medalini qo‘lga kiritgani-chi? Bular Prezidentimizning qat’iy siyosiy irodasi tufayli paxta mehnatidan ozod bo‘lgan, dalaga chiqmagan bolalar! Demak, biz yoshlarga sharoit yaratib, to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsatsak, avvalo, o‘zimiz namuna bo‘lsak bas, chunki tomirlarda oqayotgan daholar qoni, buyuklar DNKsi uyg‘onish jarayonida.

“Yoshlikda olingan bilim – toshga o‘yilgan naqsh”, deb bejiz aytishmagan. Bolalikdan ota-onam, ustozlarimning talab va nasihatlariga amal qilib, o‘qib-o‘rganganlarim, izlanib-intilganlarim bugun samarasini bermoqda. Bugun ko‘pchilik uchun murakkab va mashaqqatli tuyulgan ilm yo‘li men uchun o‘ta jozibali va o‘ziga ohanrabodek tortaveradi. Buning sababi esa bitta – yoshligimdan kitobni sevganim, ilm o‘rganishga intilganimdir.

Hayotiy tajribamdan kelib chiqib, men qalblari bir olam orzu-istaklarga to‘la yoshlarga bir maslahat bermoqchiman: o‘qishdan, izlanishdan to‘xtamang, zero, baxtli kelajakka erishishning faqatgina bir yo‘li bor, u ham bo‘lsa, ilm-u ma’rifat. Ilmni ezgulik yo‘lida sarflashning o‘zi ham ulug‘ ishdir. Olgan bilimimizni aziz Vatanimiz taraqqiyoti, xalqimizning farovon turmushi yo‘lida halollik va fidoyilik bilan mehnat qilib sarf etish biz uchun ham qarz, ham farz va insoniy burchimizdir. Buni hech birimiz yoddan chiqarmasligimiz kerak.

Zarnigor IBROHIMOVA
suhbatlashdi.

JAHON AYVONIDA

VIZASIZ REJIM TAKLIFI



Tailand rasmiylari O‘zbekiston, Kolumbiya va Meksika sayyohlari uchun 15 kunlik vizasiz rejim joriy etishni taklif qildi.

Mazkur tashabbus hujjat rasmiylashtirishdagi kechikishlar va xalqaro aviatashuvchilardagi logistik to‘siqlarni bartaraf etish – sayyohlar oqimini ko‘paytirish maqsadida ilgari surilmoqda.

POYEZDLAR TO‘QNASHUVI

Ispaniyada tezyurar poyezdlar to‘qnashishi oqibatida 68 kishi halok bo‘ldi – mamlakatda bosh vazir Pedro Sanches taklifiga binoan uch kunlik motam e’lon qilindi. Qurbonlar soni yana ortishi istisno etilmayapti.



EGASIZ HAYVONLAR QOLMADI

Turkiya ko‘chalaridagi egasiz hayvonlarni yig‘ib olish ishlari to‘liq yakunlandi.



Mazkur jarayon ikki bosqichda amalga oshirildi – dastlab 51 ta viloyatda, so‘ngra 30 ta yirik shaharda boshpanasiz jonivorlar ko‘chalardan yig‘ib olindi.


AI EKSPORTI CHEKLOVI

Xitoy sun’iy intellekt sohasining “eng qimmat qismi”ni chetga chiqarishni cheklash bo‘yicha yangi eksport nazorati loyihasini ishlab chiqmoqda.



Mazkur hujjatga ko‘ra, xorijliklar mamlakatning AI xizmatlaridan foydalanishi mumkin – ammo ilg‘or model, bazaviy ma’lumotlar va texnologiyaning o‘zi to‘liq Xitoy nazoratida qoladi.


KOSMIK SOYABON LOYIHASI



Yerni kosmosdagi ulkan “soyabon” yordamida sovitish g‘oyasi endilikda faqatgina fantastika emas – “Nature” jurnaliga ko‘ra, raketa uchirish arzonlashsa, Quyosh nurini to‘suvchi bunday konstruksiyalarni yaratish yaqin o‘n yillarda texnik jihatdan mumkin bo‘ladi.

TALQIN

HAR KIMNING O‘Z DA’VOSI BOR



Haqiqiy iste’dod qalamidan chiqqan asarning badiiy qimmati, avvalo, undagi estetik haqiqat, inson va zamon ruhining qay darajada teran ifodalangani bilan belgilanadi. O‘zbekiston xalq yozuvchisi Erkin A’zam nasrining o‘ziga xos jozibasi ham hayot haqiqatining betakror badiiy talqinida namoyon bo‘ladi. Kamina Erkin A’zam ijodining bir muhibi va tadqiqotchisi o‘laroq, adibning har bir yangi asarini intiqlik bilan qarshi olaman, ayricha qiziqish bilan mutolaa qilaman.

Yozuvchining 2025-yil so‘nggi oylarida nashr etilgan “Momaqaldiroq ostida sayr” romani adabiy jamoatchilik va kitobxonlar orasida kuchli aks sado bergan, asar yuzasidan ko‘plab maqola, taqrizlar e’lon qilinib, roman – kitobxon – tanqidchi muloqotining so‘nggi yillarda bir qadar susaygan an’anasi qayta jonlangan edi. “Ma’naviyat” nashriyotida yaqinda chop etilgan “Da’vo” romanini ham Erkin A’zam ijodiy izlanishlarining mantiqiy davomi va navbatdagi badiiy bosqichi, deb baholash mumkin.

DAVRLAR TUTASHGAN TAQDIRLAR

Tarixiy davr almashinuvi va inson taqdiri o‘rtasidagi munosabat romanning muhim g‘oyaviy negizini tashkil etadi. Asar qahramonlari – ellik yosh atrofidagi avlod vakillari bir necha ijtimoiy-madaniy muhitga shohid bo‘lgan. Bolalik va o‘smirlik sobiq sovet tuzumida, katta hayotga qadam qo‘yish mustaqillikning dastlabki murakkab yillarida, kamolot davri esa yangilanayotgan O‘zbekiston voqeligida kechadi. Shu tariqa, bir avlod taqdirida turli qadriyat tizimlari tutashadi. Bu jihatdan roman bir inson tarixigina emas, balki butun boshli avlodning ijtimoiy-ma’naviy biografiyasi, hasbi holi sifatida o‘qiladi.

Bosh qahramon Jamshid Bo‘ron tarixchi olim, kitobi nashrga tayyorlanayotgan ziyoli. Uning xarakteri tap-tayyor baho va xulosalar orqali emas, xotira, ikkilanish, ishtiboh va o‘z-o‘zini taftish etish vositasida ochiladi. Natijada tashqi voqelikka mushtarak kuchli botiniy psixologik harakat yuzaga keladi. Qishloq, qarindoshlik munosabatlari, Jiydali va Sho‘rkon, ustoz-shogirdlik an’anasi, ilmiy muhit – bularning barchasi Jamshid xotirasida qayta jonlanib, shaxsiy kechmishni butun bir avlod tajribasi bilan vobasta qiladi.

ILM, MAQOM VA HAQDORLIK

Romanda fanniy muhit, olimlar o‘rtasidagi munosabatlar, ilmiy unvon va ijtimoiy maqom masalasi muhim badiiy qatlamni tashkil etadi. Ammo adibni ilmning o‘ziga baho berishdan ko‘ra, ilm atrofida shakllanadigan insoniy munosabatlarni tadqiq etish ko‘proq qiziqtiradi. Binobarin, “Ustoz” bobidagi achchiq kinoya nafaqat jamiyatning ilmga munosabatini, qadr va manfaat mezonlaridagi siljishlarni-da fosh etadi. Kinoyaning tig‘i ilmga emas, uning qadrini faqat darhol ko‘zga tashlanadigan amaliy naf bilan o‘lchaydigan dunyoqarashga qaratilgan. Sportda medal, san’atda ommaviy shuhrat tez ko‘rinadigan natija bo‘lsa, ilmning samarasi tafakkur, bilim, ilmiy maktab, intellektual an’anada uzoq muddat davomida namoyon bo‘ladi. Muallifning hazilomuz ohangi zamirida ham jamiyatning ilmga nisbatan yanglish munosabati borasida jiddiy tashvish seziladi.

Erkin A’zam masalani “Jamiyat olimni qadrlayaptimi?” degan savol bilan cheklamaydi, qamrovni yanada kengroq olib, nigohni ilm ahlining xos olamiga qaratadi. Olimlar o‘rtasidagi raqobat, unvon, maqom, e’tirof va ustoz-shogird munosabatlari romanning muhim muammosi – haqdorlik bilan tutashadi. Ilmiy unvon birov uchun yillar davomida qilingan mashaqqatli mehnatning tabiiy e’tirofi bo‘lsa, boshqa birov uchun ijtimoiy nufuz vositasiga aylanadi.

“Do‘stona hujum” bobida professor Shokir To‘laganovning akademiklikka nomzodi ilgari surilishiga qarshi “Borgap.uz” saytida “Sotqinlikka mukofotmi?” degan imzosiz maqola chop etilishi bayon etilgan. Bu anchayin syujet mojarosi emas, muallif anonim matnning o‘zini badiiy vositaga aylantirgan. Imzosiz aybnomada shaxsiy javobgarlik yo‘qoladi, “bir guruh olimlar” degan niqob ortida esa manfaat, hasad va raqobat yashirin ekanini sezish qiyin emas. Shu tariqa, zamonaviy axborot vositasi ilmiy muhitdagi eski illat – g‘araz va manfaat kurashining yangi shaklini namoyon etadi. Ustozning ilmiy xizmatlarini inkor qilishga jur’at etmagan maqola mualliflari uning akademiklikka “da’vo qilmoq”qa haqqi bor-yo‘qligini so‘roq ostiga oladi. Bu o‘rinda “da’vo” leksemasi orqali asar sarlavhasi bilan ichki semantik aloqa o‘rnatilgan. Masala akademiklik unvonidan kengayib, insonning muayyan maqomga ma’naviy jihatdan haqli yoki haqsizligi muammosiga aylanadi. Ilmiy haqdorlik hamda ilmiy maqomga da’vo qilish dilemmasi o‘rtaga chiqadi.

Shokir To‘laganov obrazining ma’naviy salmog‘i shu savol qarshisida oydinlashadi. U akademiklikka tavsiya etilganini eshitganida: *“Yetmishlardan o‘tib ketdik-ku, Jamshidbek, men endi akademik bo‘lib nima qildim? Yoshlar bo‘lsin, mana, sen bo‘l”*, deb javob beradi. Ushbu muxtasar jumla olim xarakterini uzun ta’riflarsiz ochishga xizmat qilgan. U o‘z darajasini nedir unvon vositasida tasdiq etmoqqa jilla muhtoj emas. Shu o‘rinda muhim paradoks o‘rtaga chiqadi: *haqdor odam da’vodan yiroq, da’vogarlar esa haqdorni haqidan mahrum qilmoq uchun har ishga shay!..*

SIYOSIY DA’VO

“Da’vo” tushunchasi Junayd Jabbor obrazi orqali ilm va unvon doirasidan chiqib, jamoatchilik e’tirofi va siyosiy hokimiyat maydoniga o‘tadi. Obrazning badiiy qimmati uning rassom, shoir, deputat yoki partiya rahbari ekanida emas, balki o‘zini va atrofidagi dunyoni qanday tasavvur qilishida namoyon bo‘ladi. Jamshid Bo‘ronning roziligini olmasdan, uni “partiyaning a’zosi va eng yaqin faoli”, hatto “bosh mafkurachilaridan biri” deb e’lon qilishi sirtdan kulgili epizod. Ammo kinoya zamirida jiddiy psixologik belgi yashirin. Junayd o‘z tasavvurida qurgan dunyoga boshqalarni ularning xohish-irodasiga ters ravishda joylashtiradi. Demak, hokimiyat da’vosi hali iqtidor qo‘lga kiritilmasidan avval xarakterda mavjud. Uning mohiyati mansabning o‘zida chegara xiralashadi. Jamshid Bo‘ron va Junayd Jabbor xarakterlari o‘rtasidagi ziddiyat ham shu jihatdan ahamiyatli. Ikkalasi bir muhitdan chiqqan, qolaversa, ularni qarindoshlik rishtalari bog‘laydi. Ammo Jamshid Bo‘ronning harakati ko‘proq botinga – xotira, ishtiboh, o‘z-o‘zini so‘roq qilish va vijdon tomon, Junayd Jabborniki esa zohirga – e’tibor, e’tirof, shuhrat va hokimiyat tomon yo‘nalgan. Junaydda g‘ayrat va tashabbus poydor, Jamshidda esa o‘z-o‘zini taftish etmoq. Nazarimizda, ushbu kontrast orqali muallif insonning insonligi faqat faollikda emas, balki o‘zini taftish qila olish salohiyatida, demoqchi bo‘lgan.

O‘ZLIK DA’VOSI

Agar Shokir To‘laganov atrofidagi mojaroda ilmiy maqomga, Junayd Jabbor timsolida siyosiy hokimiyatga da’vo masalasi ko‘tarilsa, Selim turk obrazida bu tushuncha insonning o‘zligiga qadar yetib boradi. Bu jihatdan Selim romandagi eng kinoyaviy va ayni paytda, paradoksal obrazlardan biridir. Uning turkiylikka munosabati milliy muhabbat chegarasidan chiqib, muayyan psixologik idealga aylanadi. Selim tasavvurida turkiylik madaniy mansublikdan ko‘ra, yuksaklik, kuch-qudrat va ulug‘vorlik belgisi sifatida jonlanadi. Binobarin, uning kutilmaganda: “Man turk emasman! *Man – kurdman, kurd, bilib qo‘yinglar!”* degan iqrorini shunchaki yumor yo‘sinidagi syujet burilishi, deb bo‘lmaydi. *“Turk bo‘lgim kelardi-da, Jamshidjan, turk bo‘lgim! Turk zo‘r, turk katta”,* degan so‘zlari kinoyani psixologik dramatizmga aylantiradi.

Bu yerda masala o‘zini boshqa millatga mansub etib ko‘rsatishdan chuqurroq, ya’ni, o‘z *“men”idan qoniqmaslik* muammosiga insonning balandroq maqom-martaba-darajaga intilish ehtiyoji yotadi.

Erkin A’zam kinoyasining nozikligi shundaki, Selim masxara obyektiga aylanib qolmaydi. Kitobxon uning holatidan beozor kulishi mumkin, ammo bunda nafrat yoki tahqirdan ko‘ra, achinish, hamdardlik ustunroqdir. Zero, insonning o‘zligidan qoniqmay, boshqa bir “men”ni orzu qilishi chinakam fojia emasmi?! Shu tariqa, “da’vo” tashqi ijtimoiy maqomdan shaxsiy identiklik muammosiga qadar kengayadi.

SARLAVHADAGI KALIT

Romandagi turli obrazlar, rang-barang voqealar sarlavhadagi “da’vo”ning mazmun-mohiyatini oydinlashtiradi. “Da’vo” shunchaki nom emas, turli syujet chiziqlarini bir semantik markazga jamlovchi konseptual kalitdir. Xotimada esa ijodiy e’tirof da’vosi ham qo‘shiladi. Turli sohaga mansub bu intilishlarni “da’vo” leksemasi yagona ma’no maydoniga birlashtiradi. Roman asta-sekin muhimroq savolga olib keladi: *inson o‘zi da’vo qilayotgan narsaga qay darajada haqli?* Bu o‘rinda “da’vo” bilan baqamti haqdorlik degan tushuncha ham bor. Da’vo istakning tashqi ifodasi, haqdorlik esa shu istakning ma’naviy asosi. Qizig‘i, romanda haqdorlikka munosib odamlar o‘z haqini baland ovozda talab qilmaydi. Shokir To‘laganovning akademiklikka munosabati bunga misol. Qobil shogird – Jamshid Bo‘ron ham maqom-martabaga haris emas.

Asar oxiriga yaqinlashgan sari “Nima xohlayman?” degan savol “Xohlagan narsamga haqlimanmi?”, undan esa “Haqdorligimni qay mezonga ko‘ra o‘lchayman?” tarzida yanada murakkab tus oladi. Haqdorlikni belgilovchi mezon xotimada aniqlashadi. U – vijdon.



“Mutolaa – bu hayotning achchiq haqiqatlaridan qochish emas, u bilan chuqur tanishuvdir.

Marsel PRUST”

“SMS”LAR POETIKASI

“Qaytish, “sms” xabarlar” deb nomlangan yakunlovchi bob roman kompozitsiyasida alohida ahamiyatga ega. Unda asar davomida tarqoqdek ko‘ringan syujet va ma’no chiziqlari yana Jamshid Bo‘ron tegrasida birlashadi. Biroq xotimaning qimmati voqealarni shunchaki yakunlashda emas, butun roman davomida shakllangan “da’vo” konseptini yangi badiiy shaklda jamlay olishidadir. Xotimadagi qisqa xabarlarni muallifning o‘ziga xos adabiy-badiiy topilmasi sifatida baholash mumkin. Adib an’anaviy roman finalida ko‘p uchraydigan muallifning uzun xulosasi yoki qahramonlarning keyingi taqdiri haqidagi batafsil bitiklar o‘rniga, zamonaviy inson hayotiga xos ixcham kommunikatsiya shakli – SMSni tanlaydi. Natijada bir necha xabar orqali turli taqdirlar, intilishlar va da’volar bir nuqtada kesishadi.

Qahramonlar Jamshid Bo‘rondan yiroqda, ularning ovozli xabarnomasi elektron tarzda yetib keladi. Bu orqali zamonaviy inson hayotiga xos tazodiylik tasvirlangan: masofalar uzaygan, ammo xabar bir zumda keladi; odamlar olisda, ammo ularning da’volari qahramonga shu qadar yaqin. Roman personajlaridan biri Shohiyaning Lissabondagi kinofestivalda “Eng yaxshi aktrisa”likka “da’vo qilsa bo‘lishi” haqidagi xabari, ayniqsa, ahamiyatli. “Da’vo” jumlasining finalda yana paydo bo‘lishi tasodif emas. Shu tariqa sarlavhadagi kalit so‘z romanning oxirgi sahifalarigacha in’ikos etib, kompozitsion halqa hosil qiladi.

An’anaviy epistolyar romanlarda maktub qanday kompozitsion vazifa bajargan bo‘lsa, zamonaviy voqelik tasvirlangan “Da’vo” romanida qisqa elektron xabar shunday imkoniyatning yangi shaklini namoyon etadi. Farqi shundaki, maktub mulohaza va tafsilotga boy bo‘lsa, SMS voqelikni fragmentlarga ajratadi. Kitobxon esa parchalardan yaxlit ma’noni tiklaydi.

Xotimaning ma’naviy yechimi SMSlar bilan tugamaydi. Asar yana boshlang‘ich nuqta – Ustozga bag‘ishlangan kitob masalasiga qaytadi. Nashriyot direktorining bag‘ishlovni olib tashlash talabi Jamshidga yana yetkaziladi. Qahramon esa kitobini unutilmas Ustozi, akademik Shokir To‘laganovning o‘chmas xotirasiga bag‘ishlash qaroridan qaytmaydi. Kompozitsion jihatdan bu “qaytish” muhim: voqea, holat takrorlanadi, ammo Jamshid avvalgi Jamshid emas. Orada ziddiyatli munosabatlar, ichki bahslar kechdi. Shu sabab, bag‘ishlovni saqlab qolish qarori ustozga sadoqatdan kengroq ma’no-mazmun kasb etadi. Jamshid Bo‘ron boshqalarning hukmini emas, o‘z hayotiy tajribasi va vijdonini mezon qilib oladi.

Bir so‘z bilan aytganda, romanning konseptual mohiyatini uch tushuncha bilan ifodalash mumkin: da’vo → haqdorlik → vijdon.

“Da’vo” – ijtimoiy-psixologik xususiyatlarga boy, falsafiy mushohadaga moyil zamonaviy roman. Unda muallif poetikasining muhim xususiyati voqeani izohlashdan ko‘ra, uning ichiga ma’no joylash mahoratida namoyon bo‘ladi. Adib qahramonlar ustidan hukm o‘qimaydi; ularning xatti-harakatlari, nutqi va detallar orqali kitobxonni mustaqil xulosaga olib keladi. Kinoya esa tashqi qiyofa bilan ichki mohiyat, da’vo bilan haqdorlik o‘rtasidagi farqni ochishga xizmat qiladi. Zero, har kimning o‘z da’vosi bor. Ammo har qanday da’voning haqqoniy o‘lchovi – zamon, makon va maqom o‘zgarganida ham, kishi o‘z vijdoni qarshisida boshini adl tutib tura olishidir.

Obidjon SHOFIYEV,
filologiya fanlari doktori,
dotsent

MUTOLAA

Kitob mutolaasi haqida



Hermann HESSE,
Adabiyot bo‘yicha Nobel mukofoti sovrindori

Ko‘pchilik kitob o‘qishni bilmaydi va ko‘p kishilar nima uchun o‘qiyotganini tuzukroq tushunmaydilar ham. Ba’zilar buni o‘qimishli bo‘lishning qiyin, biroq yagona yo‘li deb biladi. Ular uchun har qanday kitob kishini “o‘qimishli” qiladi. Boshqa birovlar uchun esa o‘qish, bu – dam olish, shunchaki vaqtni o‘tkazish va ularga nimani (maqola, roman, she’r, xabar va hokazo) o‘qish baribir, zerikarli bo‘lmasa bas. Shunchaki dam olish, vaqt o‘tkazishni istagan va “o‘qimishli” bo‘lish haqidagina qayg‘urgan kitobxon kitobdagi dilni poklovchi, kishini ruhlantiruvchi qandaydir noma’lum bir kuchni sezadi. Biroq bu kuchni u aniq tasavvur etolmaydi va baholay ham olmaydi. Bunday kitobxon tibbiyotdan mutlaqo bexabar bemorga o‘xshaydi, ya’ni aynan qaysi dori kerakligini tushunmasdan, har bir qutichadagidan tatib ko‘ra boshlaydi. Aslida, mutolaa borasida ham har bir kishi o‘zi uchun zarur bo‘lgan, yangi kuch hamda ruhiy ta’sir baxsh etadigan kitoblarni topa bilishi kerak emasmi?

Biz – mualliflarga odamlarning ko‘p mutolaa qilishlari, albatta, yoqimli va aynan ijodkor tomonidan, haddan ziyod ko‘p o‘qishadi, deyilishi noo‘rindir. Ammo mingta loqayd kitobxondan o‘nta yaxshi kitobxon durust. Shu bois, bemalol ta’kidlashim mumkinki, hamma joyda haddan tashqari ko‘p mutolaa qilishadi va bu – adabiyot uchun obro‘ emas, ziyon keltiradi. Kitob mustaqil bo‘lmagan kishilarni yana ham ma’naviy zaiflashtirish uchun yozilmaydi, bundan tashqari, undan ba’zan noqobil odamlarga arzongarov tasvir hamda osongina o‘zgartirilgan hayotni ko‘rsatish uchun ham foydalanishadi. Kitoblar insonni hayotga yo‘llagandagina, unga xizmat qilgandagina foydalidir. Agar kitob o‘quvchiga, oz bo‘lsada, kuch-g‘ayrat, shijoat, ma’naviy poklik baxsh etmasa, mutolaa uchun sarf etilgan har bir soat behuda, besamar bo‘lib qolaveradi.

Shunchaki o‘qish, bu – diqqatni to‘plashga majbur etuvchi mashg‘ulot va ovunish uchungina o‘qish – o‘z-o‘zini aldashdir. Loqayd kishilar uchun, umuman, biror narsadan ovunishning hojati yo‘q. Aksincha, ular hamma joyda diqqat-e’tiborli bo‘lishlari, qayerda nima bilan mashg‘ul bo‘lishmasin, nima haqda fikr yuritishlaridan qat’i nazar, o‘zlarini butun vujudlari bilan voqealar girdobida his etmoqlari zarur.

Hayot qisqa, uning poyonida hech kimdan o‘qilgan kitoblar soni so‘ralmaydi. Biror foydasi bo‘lmasa, o‘qishga vaqt sarflash aqllilik belgisi emas, aksincha, koni ziyon emasmikin? Men bu o‘rinda faqat yomon kitoblarni emas, avvalambor “sifatli mutolaa”ni nazarda tutyapman. Hayotda bosgan har bir qadaming kabi o‘qishdan ham biron natija kutiladi. Mutolaadan yangi kuch-g‘ayrat olmoq uchun avvaliga kuch sarf etmoq, o‘zingni yanada yaxshiroq tushunmoq uchun oldin o‘zingni “yo‘qotmoq” kerak bo‘ladi.

Agar har bir o‘qilgan kitob quvonch va alam, shijoat hamda ruhiy tazarru olib kelmasa, jahon adabiyoti tarixini bilishdan ma’no yo‘q. Fikr-mulohaza qilmasdan o‘qish – xushmanzara tabiat qo‘ynida ko‘zni bog‘lab yurmoq demakdir. Biz o‘zimizni va turmushimizni unutish uchun emas, balki hayot jilovini yanada ongliroq ravishda anglash uchun o‘qishimiz kerak. Kitobga dimog‘dor o‘qituvchiga qaragan qo‘rqoq o‘quvchi singari emas, balki eng baland cho‘qqini zabt etmoqqa shaylangan shiddatkor alpinist kabi yondashmoq talab etiladi.

Olmon tilidan
Mirzaali AKBAROV
tarjimasi.



TIRIK SATRLAR

Boshlanishi 1-sahifada.

Yana bir iste’dodli shoir Nazar Shukurning kitobi “Tilmochsiz hislar” deb nomlanadi.

Topmas edi she’rlarim sayqal,
Yor, bermasang ishqing bilan zeb,
Senga tiklab so‘zlardan haykal,
Imzo chekdim “Nazar Shukur” deb.

O‘z vaqtida shunday esda qolarli she’rlari bilan tilga tushgan shoir “Marhamat, / Kiravering taklifsiz, / Pattasiz, / Men yaratgan TUYG‘ULAR MUZEYIGA!” deya o‘z muxlislarini kitob orqali qayta diydorlashuvga chorlamoqda.

Zamonaviy o‘zbek adabiyoti, xususan, she’riyatida alohida o‘ringa ega bo‘lgan shoir Asqar Mahkam ijodidan saralangan asarlar “Odam” nomi bilan nashr qilingan. “Qismat peshonamga qissalar bitdi, / Men shul qismatimning qissago‘yiman”, deb yozgan edi shoir bir she’rida. Darhaqiqat, pokiza tuyg‘ulariga yolg‘on aralashmagani, taqdirning rost va samimiy izhori bo‘lgani uchun ham bu asarlar boqiy yashashga haqlidir.

Bu dunyoda hayratlanib yashab o‘tgan bir shoir bor – Ne’mat Hayrat.

Bir kun yuragingni kuydiradi o‘t,
Eshikdan gul tutmas
kimsalarni kut,
Bittasi senmiding dunyolari but,
E-e-y-y, meni unut, –

deya unutilmas she’rlar yozgan ijodkorning kitobi “Osmonlardan qaytib kelaman” degan nekbin nom bilan atalgan.

Iqtidorli shoir Zarif Sultoniyning “ko‘zlaring ustina inar moh / yulduzlar boshinga qo‘nadir / falak xayolinga cho‘madir, Farangis bilmassan oh / dunyoni hayratlar ko‘madir / ul kecha Sen uchun to saboh / Ishqdan bir anjuman tuzalar/ saburlar yo‘lingga uzalar / Farangis kelmassan oohh / faryodlar dunyoni buzalar / bir g‘arib tong otar ul kecha / yo yetam / yo yetmam tonggacha”, “dil bundadir dor bundadir / Dildor qani”, “maysalar uyg‘ondi maysalar / yuzinda shabnamlar zarangiz / shabboda bir yorug‘ kuy chalar / (qarangiz nur kabi qarangiz / sochilib keladir Farangis)” singari o‘ziga xos satrlarini she’r ixlosmandlari yoddan aytib yurganlariga guvohmiz. Shoirning shunday go‘zal she’r va tarjimalaridan tashkil topgan to‘plami “Ayriliq visoli” deb nomlangan.

O‘zbekiston xalq shoiri Usmon Azim Jo‘rabek Ramazonning “Muhabbat manzili” to‘plamiga so‘zboshi o‘rnida berilgan xotirasida shunday yozadi: “Haqiqiy shoirlarni joni ozmi-ko‘pmi sabil qolgan bo‘ladi. Ular – faqat ular! – dunyoni dunyodan ko‘ra chiroyli, dunyodan ko‘ra dardli, dunyodan fojiali ko‘radilar! Ularning joni hammanikidan ortiqroq kuyadi... Ular “o‘lim haq” ekanligini bo‘yinlariga olgan odamlar. Hazrati Bahovuddin aytganlar-ku: “Hech narsamiz yo‘g‘-u, hech kamimiz yo‘q. Hechimiz yo‘qlikdan hech g‘amimiz yo‘q. Jandamiz – yelkada, yelkada go‘riston, Gar o‘lar bo‘lsak hech motamimiz yo‘q!” Xuddi shunday! “Gar o‘lar bo‘lsak”... Xuddi shunday! Bu Jo‘rabek Ramazon deganlari bobolari monand juda qo‘rqmas, mardona shoir ekan!” O‘ylaymizki, shoir ijodi ta’rifi uchun bu so‘zlar kifoyadir.

Mansur Jumayevning “Kichkina odamning ulkan qalbi” nomli kitobiga muallif qalamiga mansub ta’sirchan maqola va esselar jamlangan. “Aytishlaricha, mazkur jumla Aleksandr Dyumaning (1802–1870) “Parij mogikanlari” romanida ilk bor qo‘llanilgan bo‘lib, keyinchalik juda keng tarqalgan va iboraga aylanib ketgan ekan”. Bu qaysi so‘z? “Deydilarki, Nyuton boboning boshiga olma tushibdi va u yerning tortishish qonunini ilm olamiga qoida qilib kiritibdi. Darhaqiqat, dunyoda bunday mashhur voqealar va nomlar ko‘p. Lekin butun boshli bitta xalqning ismlar tarkibini yangi bir nom bilan boyitgan o‘zbek “kashfiyotchi”si haqida bilmasangiz kerak. Men ham uning shoirligi, dostonnavisligi, mohir tarjimonligini bilardim-u, bu kashfiyotidan xabarim yo‘q edi”. Kim ekan bu kashfiyotchi shoir va u nimani kashf etgan? Bunday qiziqarli savollarga javobni mazkur to‘plam orqali bilib olasiz.

O‘tganlarni xotirlash, ular merosini o‘rganish va keng targ‘ib etishdek ezgu va xayrli, savobli maqsadda tayyorlangan ushbu turkum “Adabiyot” nashriyotida har biri ming nusxadan chop etilgan.

Nigina ISKANDAROVA



Kitob ichimizdagi muzni chopadigan bolta bo‘lishi kerak.

Frans KAFKA

QO‘SHCHINOR CHIROQLARI

Boshlanishi 1-sahifada.

Undan narisi uzumzorlar tog‘ga ulanib ketgan. Ko‘zoynakni artib qarasam, umuman dala-pala emaskan. **Savol alomati yuzimda zohir bo‘ldimi, Yoshlar ishlari agentligi Toshkent viloyati boshqarmasi boshlig‘i Nodir Hojiyev izoh berdi:**

– Bir qarashda dala deb o‘yladingizmi siz ham? Devorlarning quruq turishi ma’qul ko‘rilmadi. Chiroyli qilib banner ilib chiqishni taklif qildik. Shunda viloyat hokimi Zoyir Mirzayev tabiat qo‘ynidagi bu maskanga sun’iylik yarashmasligini, rassom topib, bog‘ muhitiga mos surat ishlashni topshirdi. Haqiqatan ham natija mutlaqo boshqacha bo‘ldi. Umuman, bu maskan qurilishida yoshlarni o‘ziga jalb qiluvchi, kattalarning qadrli xotiralarini eslatuvchi detallarni uyg‘unlashtirishga harakat qildik.

* * *

Ikki qavatli ma’rifat markazining o‘zi alohida mo‘jiza edi. **Viloyat ma’naviyat va ma’rifat bo‘limi rahbari Salim Anorboyev bu haqda gapirib berdi:**

– Birinchi qavati tuman yoshlar bo‘limi va to‘garaklarga, ikkinchi qavati tuman axborot-kutubxona markaziga berilgan. Bino uchun tanlangan joy yaqin atrofdagi eng baland tepalik hisoblanadi. Nomi peshtoqiga katta-katta harflar bilan yozilgani ham bejiz emas. Bunaqa hashamatni odatda to‘yxonalar, do‘konlarda ko‘rib o‘rganib qolganmiz-da. Mana, kutubxonani ham mana shunday bezash mumkin ekan. Yaqin-yaqingacha to‘yxonalar, kafelar, restoranlar, oziq-ovqat shoxobchalari, do‘konlar shunaqa hashamat bilan qurilardi. Bu ham yaxshi. Lekin ular bizning moddiy ehtiyojlarimizni ta’minlaydi, xolos. Ma’naviy ehtiyoj-chi? Ruhga ozuqa beradigan maskanlarning ko‘rinishi ham ko‘ngilochar joylardan qolishishi kerak emas.

Ha, bu gaplarda jon bor. Agar yoshlar kutubxonani, muzey kabi maskanlarni yaqqol ko‘rib turmasa, uni izlab yursa, oxiri topolmagach uzoqlashib ketishi tabiiy. Kundalik hayotdan bir misol: notanish joyga borsak, kerak manzilni duch kelgan odamdan so‘raymiz. Uyam yaqin-atrofdagi eng mashhur obyektni mo‘ljal qilib tushuntiradi. Masalan, daraxt, ko‘prik yoki to‘yxona, supermarket yoki tomi baland uylar... Endi parkentliklar mo‘ljalni Qo‘shchinorga qarab olaveradi.

Markaz atrofi asriy chinorlar bilan o‘ralgan. Xuddi shu chinorlarning yoniga bugun yangi butalar, nihollar, gul ko‘chatlari ekilgan. Bu ham ramziy ma’noga ega, Zulfiyaxonim yozganidek, “bu bog‘lar bir bog‘lar bo‘ladi hali”.

* * *

Katta ishtiyoq va qiziqish bilan yuqori qavatga – tuman kutubxonasiga ko‘tarildik. Bu odatiy kitob saqlanadigan va o‘qiladigan joy emas. Kutubxona bo‘lganda ham, noodatiy dizaynga ega kutubxona. Ikkinchi qavatning markazi doira shaklida o‘rab olingan, uning tashqarisida ma’muriy xonalar, ichida esa o‘quv zali. Keng-mo‘l tolor oynavand tom bilan yopilgan. Ochiq havoda quyosh nurlari tushib turadi – tabiiy yorug‘lik va harorat; yog‘in-sochinli havoda derazadan yomg‘ir tomchilari sirpanadi, qor zarralari qo‘nadi. Axir, bundan ham yoqimli mutolaa romantikasi bo‘lishi mumkinmi?! Tolor markaziga temir tasmasi shiftdan tushib kelgan, qo‘l mehnati mahsuli bo‘lgan qabariq globus qo‘r to‘kib turibdi.

– Hayratlanarli-a? Bu kitoblar dunyosi va dunyo kitoblarining, keng dunyoqarashning ramzidek. Ko‘rib turganingizdek, kutubxonaning ichki devori buyuk allomalarimiz, jadid bobolarimiz suratlari, hikmatlari bilan ziynatlangan. Asarlar ham o‘quvchilarga qulay bo‘lishi uchun mavzulashtirib terilgan, **– dedi tuman axborot-kutubxona markazi rahbari Muhayyo Ahmedova.** – Jihozlar ham zamonaviy va qulay. Bunaqasini nomi ketgan o‘quv markazlarida ko‘rganman. Ko‘pchilik maqtaydigan xususiy ta’lim muassasalaridagi sharoit ham bo‘lsa, shunchalik bo‘ladi. Mutolaadan toliqsangiz, ikkinchi qavatning manzariga chiqasiz. Ko‘z oldingizda O‘rol Tansiqboyev suratlariday betakror manzara yastanib yotibdi. Bu yerdan butun Parkent ko‘rinadi... Rostini aytsam, bu manzilga yetib kelguncha kutubxona yetti marta ko‘chgan. Bir oilaning ko‘chishini tasavvur qilib ko‘ring. Endi bu kutubxonaning ko‘chishi – minglab kitoblar, minglab hujjatlar, degani. O‘ylashning o‘zi tasavvurni toliqtiradi. Kitobxonlarning sarsonligini ayting... Davlatimiz rahbarining barcha hududlarga berayotgan e’tibori samarasi, mana, Toshkentdagidan qolishmaydigan munosib joyga ega bo‘ldi parkentlik kitobsevarlar.

* * *

Yuz-ko‘zida iftixor va shukronalik nuri porlab turgan kutubxonachini ko‘rib, Muhayyo opa yaxshi badialar yozsa bo‘lar ekan, deb o‘ylab qoldim. Mana shunday fidoyi insonlar mehnati sabab, nodir adabiyotlar saqlab qolinadi, kitobxonlik madaniyati targ‘ib qilinadi, adabiyot va mutolaaga qiziqish ortadi.



Javonlarga terilgan kitoblarni tomosha qilar ekanman, nogohon ko‘zim ko‘pdan beri izlab yurganim, bir xazinaga tushib qoldi. Prezidentimiz tashabbusi bilan Alisher Navoiy asarlarining 100 jildlik ommabop nashrini tayyorlash vazifasi belgilanganidan xabaringiz bor. Ayni paytda nashrdan chiqqan 31 jildi kutubxona to‘rini bezab turibdi. Ana shu ko‘pjildlikni ko‘rib, qani edi, shu yerdan chiqmay Hazrat asarlarini mutolaa qilib o‘tirsam, degan ishtiyoq dilni egalladi. Parkentliklarga havasim keldi.

Chig‘anoqning qadri bag‘ridagi dur bilan o‘lchanadi. Bu “sadaf”ning bag‘ri noyob javohirlarga limmo-lim.

* * *

Mana shunday betakror majmuaning ochilish marosimi ham o‘ziga xos adabiyot va kitobxonlik bayramiga aylandi. Tadbirda atoqli ijodkorlar, olimlar, o‘qituvchi va murabbiylar, jamoatchilik vakillari, yoshlar ishtirok etdi. **Toshkent viloyati hokimi Zoyir Mirzayev** o‘z nutqida Qo‘shchinor bog‘i va ma’rifat maskani O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Parkent tumanini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish borasida belgilab bergan vazifalari doirasida, 19 milliard so‘m mablag‘ evaziga qisqa muddatda barpo etilganini ma’lum qildi. “Endi ota-onalar, bobo-buvilar bolasini, nevarasini yo‘qotib qo‘ysa, xavotirlanmay, qo‘rqmay, boshqa joydan izlab ovvora bo‘lmay, to‘g‘ri shu yerga keladi”, deb lutf qildi u.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti maslahatchisi, O‘zbekiston xalq yozuvchisi Xayriddin Sulton mazkur go‘shaning tarixi, buguni va ertasi haqida zalvorli fikrlarni bildirib o‘tdi:

– Yoshi ulug‘ oqsoqollarimiz yaxshi eslashadi. Yoshlik davrimizda shu hududda to‘rt gektardan ko‘proq maydonni egallagan Maksim Gorkiy nomidagi madaniyat va istirohat bog‘i bo‘lardi. U fusunkor tabiati, musaffo havosi, ariqlarda sharqirab oqib yotadigan zilol suvlari, asriy chinor va qayrag‘ochlari bilan nafaqat Toshkent viloyati, balki butun O‘zbekistonda ma’lum va mashhur edi. Buni taniqli kinorejissyor va yozuvchi Uchqun Nazarov o‘zining “Surayyo” nomli badiiy filmining ko‘p go‘zal lavhalarini ayni mana shu xushmanzara joyda suratga olganida ham ko‘rish mumkin.

Park hududida katta futbol va voleybol stadioni, farg‘onacha kurash bo‘yicha respublika birinchiliklari o‘tadigan maydon, “Bahor” kinoteatri, so‘lim xiyobonlar, dilkash choyxonalar, yaxna ichimlik do‘konchalari faoliyat ko‘rsatar va bu fayzli maskan hamisha odamlar bilan gavjum bo‘lardi. Azim daraxtlar soyasida, yashil maysazorlarda yaqin atrofdagi maktablarning o‘quvchilari dars tayyorlab, kitob o‘qib o‘tirar edilar. Ana shu bolalar orasidan o‘nlab akademik va professorlar, davlat va jamoat arboblari, taniqli shoir va adiblar, mashhur san’at va sport namoyandalari yetishib chiqdi. O‘zbekiston Qahramonlari Said Ahmad, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Ibrohim G‘afurov kabi o‘zbek adabiyoti va san’atining atoqli darg‘alari keyinchalik Qo‘shchinor deb nom olgan bog‘da muntazam o‘tkaziladigan tadbirlarning aziz mehmonlari, faol ishtirokchilari edilar.

Afsuski, keyingi yillarda mana shunday mashhur bog‘ deyarli vayrona holiga kelib qolgan edi. Qanchalik og‘ir va achchiq bo‘lmasin, bunga nafaqat ayrim mas’uliyatsiz rahbarlar, istirohat bog‘ining talon-taroj bo‘lishiga yo‘l qo‘yib bergan mansabdorlar, balki hammamiz aybdor ekanimizni tan olishimiz kerak. Bizning beparvo va loqaydligimiz, menga nima, degan munosabatimiz tufayli ko‘z o‘ngimizda mana shunday noxush hol yuz berdi. Va bu bizga, albatta, saboq bo‘lishi zarur.



Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev mamlakatimizning barcha viloyat va tumanlari qatori Parkentga ham jiddiy e’tibor qaratdi. O‘tgan davr mobaynida Davlatimiz rahbari tumanimizga bir necha bor tashrif buyurdi. O‘rni kelganda aytish joizki, Sharof Rashidovdan so‘ng respublikadagi bironta birinchi rahbar Parkent tumaniga qadam ranjida qilmagan edi.

Bugun tumanning ko‘pmillatli aholisi, keksa-yu yosh, barcha hamyurtlarimiz bir fikrni yakdillik bilan takrorlamoqda: “Parkent – Parkent bo‘lib, o‘zining ikki ming yillik ko‘hna tarixida bu kabi ulug‘vor o‘zgarishlarni ko‘rgan emas”.

Mana, ko‘z oldimizda g‘oyat muhtasham, har tomonlama havas qilsa arziydigan, betakror maskan qad rostlab turibdi. Dunyoda, jumladan, bizga yaqin hududlarda notinchlik, qurolli to‘qnashuvlar, ziddiyatlar, iqtisodiy inqiroz hukm surayotgan bir paytda, bunday inshoot-u binolarni bunyod etish, albatta, oson emas. Bunga qanday katta mablag‘ va resurslar, kuch-imkoniyatlar safarbar etilganini yaxshi tushunamiz. Agar boshqa joylarda bunday majmualarni qurish uchun bir hissa mablag‘ sarf etilsa, Qo‘shchinor uchun ikki-uch hissa ko‘proq mablag‘ ishlatishga to‘g‘ri keldi. Sababi ayon, bu yerdagi biznes subyektlari uchun kompensatsiya to‘lash, chala qolib ketgan inshootlarni demontaj qilish uchun ham katta xarajatlar qilindi. Shu ma’noda, bu bog‘, bu majmua anchagina qimmat obyekt hisoblanadi. Ammo uning qimmati yolg‘iz moliyaviy ko‘rsatkichlar bilangina o‘lchanmaydi. Bu maskan, avvalo, Parkent ahliga umid va ishonch, adolat tuyg‘usini tiklab bergani uchun qimmatlidir. Negaki, mana shu bayramona makonda men kabi yuzlab odamlarning yorqin xotiralari, orzu-intilishlari, yuragining bir parchasi ko‘milib ketgan edi. Azizlar, inson och-nahor yashashi qiyin, albatta. Ammo umidsiz, kelajakka ishonchsiz yashay olmaydi. Binobarin, biz endi ushbu majmualardan odilona, oqilona va madaniyat bilan unumli foydalanishimiz, har bir imorat, har tup daraxt va butani asrab-avaylashimiz zarur.

Ulug‘ adibimiz Abdulla Qahhorning “Qo‘shchinor chiroqlari” degan romanini ko‘pchiligingiz bilasiz. Bugungi quvonchli shodiyona kunda barchamizning tilagimiz, niyatimiz bitta: Parkentimizdagi Qo‘shchinor chiroqlari ham doimo porlab tursin, hech qachon so‘nmasin.

Marosimda O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi, O‘zbekiston xalq shoiri Sirojiddin Sayyid ham so‘z oldi:

– Mana shunday muhtasham ibratxona davlatning e’tibori bilan bunyod bo‘ldi, endi bu go‘sha bir kunga bo‘sh qolsa ham yaratilgan sharoitni isrof qilgan bo‘lamiz. Qo‘shchinor bundan buyon ijod ahlining, ma’rifat targ‘ibotchilarining, yosh kitobxonlar va adabiyotsevarlarning sevimli manziliga aylanishi shart. Uyushmamiz ham endi yirik uchrashuv va mushoiralarini shu yerda o‘tkazsa, deb taklif qilmoqchiman. Ustozlar ruhini shod etib, zamondosh adiblar va aholi o‘rtasida samimiy muloqot o‘rnatamiz.

Shu payt xayolimga bir fikr keldi: hududlarda ma’rifat maskani quraman deb bel bog‘lagan tadbirkorlar, o‘zidan ezgu yodgorlik qoldirish niyatidagi saxiy vatandoshlarimiz bor. Ular ham mazkur binoni ko‘rib, ulgi olsa, nur ustiga nur bo‘lar edi. Umuman, bu ma’naviy koshonaga bir bor qadam ranjida qilib, havosidan nafas olgan har qanday odam ko‘nglida orzu-havas, nekbinlik, shukrona hamda ishtiyoq uyg‘onishi tabiiy.

Muqaddimada Parkentning diltortar maskanlari haqida so‘z yuritgandim, mana, yana bir zamonaviy va ibratli qadamjo bunyod bo‘ldi. Keling, ko‘ring, ziyorat qiling...

* * *

Marosimdan keyin “Jadid” gazetasi tahririyati ham mazkur yirik markazga o‘z hissasini qo‘shdi. Kutubxonaga “Jadid” kutubxonasi” ruknida chop etilgan ikki jildli “Tilda, fikrda, ishda birlik!” kitob-albomi, “Millat fidoyilari” (Rustambek Shamsutdinov), “Botmasin chiqqan quyosh...” (Bahodir Karim), “Hirotga, bobomning huzuriga!” (Shahriyor Shavkat) kitoblari taqdim etildi. Zero, yangi kutubxonalar ochish, ularni yaxshi asarlar bilan boyitish jadid bobolarimizga xos qutlug‘ an’anadir.

Endi parkentliklarga qolgan ish – o‘qish-o‘rganish, bilimlarni hayotga tatbiq qilish. Chunki, Uchinchi Renessans aynan mana shunday ma’naviy maslaklardan, mana shu chinorlar soyasidagi mutolaadan boshlanadi...

Otabek BAKIROV

ULUG‘BEK BAYROG‘I

Boshlanishi 1-sahifada.

– Astronom bo‘lishimda dadam Abdumannon Egamberdiyevning roli katta bo‘lgan. Yoshligimizda Andijonda yashardik. Dadam dunyoda kechayotgan turli hodisalarga, astronomiyaga juda qiziqardi, fantastik asarlarni ko‘p o‘qirdi. O‘sha paytlarda Ivan Yefremovning “Andromeda tumanligi” romani juda mashhur edi. Dadam asarni o‘qib, bizga mazmunini qiziqarli qilib gapirib bergan. Esimda, hovlimizda ochiqroq joyga chiqib, osmonga qarab, Andromeda tumanligini izlardik. Keyinchalik bilsam, Andromeda aslida galaktika bo‘lib, u tumanlik shaklida ko‘ringani uchun shunday atalgan ekan. Dadam bizga koinot haqida gapirib berar, yulduzlar osmonning turli qismlarida to‘da-to‘da bo‘lib joylashishini tushuntirardi. Masalan, biz yashayotgan galaktika – Somon yo‘lida 300 milliardga yaqin yulduz bor. Ulardan biri – Quyosh. Quyosh atrofida esa sakkizta sayyora mavjud bo‘lib, ulardan biri bizning Yerimiz.

Men ma’ruza qilganimda, koinotdagi galaktikalarning joylashuvini tushuntirish uchun bir misol keltiraman. Tasavvur qiling, samolyotda uchib ketyapsiz. Avval Toshkentni ko‘rasiz – chiroqlarga to‘la yorqin bir manzara. Keyin qorong‘ilik boshlanadi. So‘ng yana yorug‘ joy ko‘rinadi – bu Sirdaryo. Keyin Jizzax, undan keyin esa Samarqandning chiroqlari ko‘zga tashlanadi. Koinotdagi galaktikalar ham shunga o‘xshab, goh zich, goh siyrak joylashgan. Har bir galaktikaning o‘zida esa milliardlab yulduzlar bor.

Bizga eng yaqin galaktikalardan biri – Andromeda tumanligi. U ham ulkan galaktika. Dadam menga uning yorug‘ligi bizgacha qariyb ikki yarim million yilda yetib kelishini aytardi. Yorug‘likning bir soniyada 300 ming kilometr masofani bosib o‘tishini ham tushuntirib bergan. Bu tezlikning o‘zi inson tasavvuriga sig‘ishi qiyin. Shunday ulkan tezlik bilan harakat qilgan yorug‘likning Andromedadan Yerga yetib kelishi uchun millionlab yillar kerak bo‘ladi. Bu esa koinotning naqadar bepoyon ekanini tasavvur qilishga yordam beradi.

Yefremovning o‘sha asarida ham qahramonlar kosmik kemaga o‘tirib, Andromeda tomon yo‘l olishadi. Balki aynan shu sababli asar menga yanada qiziq tuyulgandir. Bolalikdagi ana shu suhbatlar va tasavvurlar menda astronomiyaga katta qiziqish uyg‘otdi. Keyinchalik, maktabning yuqori sinflarida o‘qib yurgan paytlarimda dadam meni Samarqandga olib bordi. Albatta, Mirzo Ulug‘bek rasadxonasiga ham bordik. O‘sha yerda dadam men uchun juda muhim bo‘lgan bir gapni aytdi: “Bilasanmi, hozir Armanistonda Ambarsumyan degan buyuk olim bor. Astronomiyaning bayrog‘i hozir Armanistonda hilpirab turibdi. Bu juda nomaqbul hol. Chunki biz Mirzo Ulug‘bekning vorislarimiz. Sen astronom bo‘lib, Ulug‘bekning bayrog‘ini O‘zbekistonga qaytarishing kerak”. Bu 1960-yillarning oxiridagi voqea. Bir-ikki yildan keyin oliy o‘quv yurtiga kirishim kerak edi. O‘sha gaplar hayot yo‘limni belgilab bergan katta da’vat bo‘lgan.

– Xabarimiz bor, otangiz taniqli adib ham bo‘lgan, “Sariq ajdar hamlasi” asarini yozgan. Ushbu roman bugun ham o‘zbek va rus tilida qayta-qayta nashr qilinyapti, kitobxonlar katta qiziqish bilan o‘qiyapti. Bunday ota farzandlarining orzulariga qanot bog‘lashi shubhasiz.

– Graf Sen-Simon: “Meni uyg‘otganingizda, “Graf, turing, sizni buyuk ishlar kutyapti”, deb uyg‘otinglar”, der ekan. Dadam bu voqeani bizga aytib, hazillashib: “Turinglar, bolalarim, sizlarni buyuk ishlar kutyapti”, derdi. Shu tariqa dadam bizga doimo hayotda katta, buyuk ishlar qilish kerakligini uqtirardi. Menga esa: “Sening vazifang – Ulug‘bekning bayrog‘ini O‘zbekistonga qaytarish”, deb alohida ta’kidlardi. Dadamning astronomiyaga qiziqishi butun umr saqlanib qoldi. Bu fanning juda ko‘p jihatlaridan xabardor edi. Ba’zan telefon qilib: “Kecha televizorda ko‘rdim, yangi sayyora ochilibdi. Eshitdingmi?” deb so‘rardi. “Dada, “Axborot”ni ko‘ra olmadim, majlisda edim”, desam, “Yo‘q, shuni bilib qo‘y. Birov so‘rasa, “bilmadim”, desang, uyat bo‘ladi”, derdi.

Dadamning qiziqishlari faqat astronomiya bilan cheklanmagan. U kishi doim katta ish qilish kerak, deb hisoblardi. Universitetni tamomlaganida, ustozi, xitoyshunos olim Bechurin qadimgi davrlarda Markaziy Osiyoda yashagan xalqlar haqidagi kitobni sovg‘a qilgan ekan. Dadam o‘sha kitobni o‘qib, miloddan avvalgi II asrda Xitoy imperiyasi Dovon davlatiga ikki marta yurish qilgani, ularning asosiy maqsadlaridan biri mashhur samoviy otlarni qo‘lga kiritish bo‘lgani haqida ma’lumot olgan. Har ikki yurishda ham ota-bobolarimiz kuchli qarshilik ko‘rsatib, Xitoy qo‘shinlarini mag‘lub etgan. Dadam bu voqealarni o‘qib: “Buni xalqimizga yetkazishim, ajdodlarimiz qahramonligini aytib berishim, yozishim kerak”, degan xulosaga kelgan. Ammo o‘sha davrda Sovet Ittifoqi va Xitoy o‘rtasidagi siyosiy munosabatlar sababli bu mavzuni ochiq yoritishga imkon bo‘lmagan. Nihoyat, 70-yillarning boshlarida ikki davlat o‘rtasida fojeiy to‘qnashuv yuz bergach, dadam: “Mana, endi mening vaqtim keldi”, deb, “Sariq ajdar hamlasi” romanini yozgan.

Roman avval rus tilida yozilgan, chunki u paytda o‘zimizda bu mavzuda asarni chiqarishga senzura ruxsat bermas edi. Keyin o‘zbek tiliga o‘zi tarjima qildi. Kitob dastlab Moskvada 100 ming nusxada chop etilgan. Asar uchun muallif turli mukofotlarga sazovor bo‘lgan. Hozir bu asarning to‘rtinchi nashri chiqish arafasida.

– Tarix ham koinot qadar cheksizlik, mavhumlik, yorug‘lik va zulmatdan iborat. Bashariyat aql mash’ali yongan kunlardan osmonga termilib, uning sirlarini yechishga intilgan. Afsonalardan boshlangan izlanishlar keyinroq ilmiy tus olib, alohida fanga aylandi. Endi insoniyat koinot haqida juda ko‘p ma’lumotga ega. Bugun falakshunoslar “bilimlarimiz yetarli” deb ayta oladimi?

– Ilm ahli “endi yetarli” degan onda taraqqiyot g‘ildiragi taqa-taq to‘xtaydi. To‘xtashi ham bir nav, undan keyin ishlar orqaga ketishni boshlaydi. Ammo shuni aytish mumkinki, ayniqsa, so‘nggi yillarda koinot tuzilishi haqidagi tasavvurlarimiz nihoyatda kengaydi. Mirzo Ulug‘bek davrida astronomiyaning asosiy vazifalaridan biri osmon jismlarining joylashuvi va harakatini aniq o‘rganish edi. Shu jihatdan Ulug‘bekning yulduzlar katalogi o‘z davri uchun mislsiz ilmiy yutuq bo‘lgan. U 1018 ta yulduzning koordinatlarini nihoyatda aniqlikda belgilagan. Ulug‘bek o‘zidan avvalgi astronomlar, xususan, Abdurahmon Sufiyning ma’lumotlarini osmondagi yulduzlarning haqiqiy holati bilan solishtirib, ayrim tafovutlarni aniqlagan. Shundan so‘ng yangi kuzatuvlar olib borib, o‘zining “Zij”ini yaratgan. Shu sababli, uning asari Yevropa astronomlari tomonidan ham e’tirof etilgan. Bugun ham Ulug‘bekning nomi O‘zbekistonni dunyoga tanitishda davom etmoqda. Oradan olti asr o‘tgan bo‘lsa-da, uning ilmiy merosi o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q.

Astronomiya keyinchalik osmon jismlaridan kelayotgan nurlarni o‘rganish orqali yanada rivojlandi. Masalan, spektral tahlil yordamida yulduzlarning qanday kimyoviy elementlardan tashkil topganini aniqlash imkoniyati paydo bo‘ldi. Keyinchalik yulduzlarning magnit maydonlari va boshqa xususiyatlarini o‘rganish usullari ham rivojlandi.

Afsuski, ilmiy bilimlarimiz kengayib borayotganiga qaramay, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda ilmiy asosga ega bo‘lmagan ma’lumotlar ham ko‘paymoqda. Masalan, “Yer tezroq aylanayotgani uchun sutka qisqarib ketdi”, “Quyosh tez orada o‘chib qoladi” yoki “Sayyoralar paradi Yerda katta o‘zgarishlarga sabab bo‘ladi”, degan gaplar tarqalyapti. Aslida, bunday vahimalarga ilmiy asos yo‘q. Yerning aylanish tezligidagi o‘zgarishlar juda kichik – millisoniyalar miqyosida. Quyosh esa hozir taxminan 4,5 milliard yoshda va hali milliardlab yillar davomida nur sochishda davom etadi. Sayyoralar “paradi” ham Yerga qandaydir favqulodda ta’sir ko‘rsatadigan hodisa emas – bu shunchaki aniq hisob-kitobga asoslangan osmondagi go‘zal manzaralardan biri.

Yana bir masala – astrologiya, ya’ni, yulduzlar orqali inson taqdirini belgilashga urinish. Astronomiya bilan astrologiyani mutlaqo aralashtirmaslik kerak. Astronomiya – ilmiy fan, astrologiyaning esa ilmiy asosi yo‘q. Umuman, bugun insoniyat koinot haqida avvalgidan nihoyatda ko‘p narsani biladi. Ammo koinot shu qadar ulkanki, bizning bilimlarimiz hali ham uning cheksiz sirlaridan faqat bir qismini qamrab oladi.

– Olis yulduzlar yog‘dusi bizga hali ko‘p sirlarni ochishiga ishonamiz. Keling, bizga eng yaqin bo‘lgan, “o‘zimizning yulduz” – Quyosh haqida gaplashsak. Olimona nazar Quyoshda yana qanday ochilmagan sirlarni ko‘radi?

– Quyosh – Yer yuzidagi hayotning eng muhim manbayi. Biroq Quyoshni faqat yorug‘lik va issiqlik manbayi sifatida o‘rganish bilan cheklanib bo‘lmaydi. U o‘zining ichki tuzilishi, fizik xususiyatlari va murakkab jarayonlari bilan astronomlar uchun hamon muhim tadqiqot obyekti hisoblanadi. Men ham ilmiy faoliyatimning dastlabki yillarida, universitetni tamomlab, nomzodlik dissertatsiyam ustida ishlayotgan paytlarimda Quyoshni o‘rganish bilan shug‘ullanganman. Tadqiqotlarimning asosiy yo‘nalishi uning ichki tuzilishini aniqlashga qaratilgan edi. Bu soha gelioseysmologiya deb ataladi. Bu sohada Quyosh yuzasida kuzatiladigan tebranishlar va to‘lqinlar tahlil qilinib, uning ichki qatlamlari, fizik xususiyatlari hamda aylanish jarayonlari haqida ma’lumot olinadi.

Bu yo‘nalishda xalqaro miqyosdagi yirik ilmiy loyihalardan birida ishtirok etganmiz. 1980-yillarning boshlarida Fransiyaning Nitsa universiteti olimlari Quyoshni uzluksiz kuzatish imkonini beruvchi maxsus dastur ustida ish boshladilar. Loyiha doirasida dunyoning turli nuqtalariga oltita teleskop o‘rnatish rejalashtirilgan edi. Maqsad – Yerning turli mintaqalarida joylashgan observatoriyalar yordamida Quyoshni bir-biriga uzviy bog‘langan holda kuzatish va shu tariqa uzluksiz ilmiy ma’lumot to‘plashdan iborat bo‘lgan. Bu kuzatuvlar o‘ziga xos estafetani eslatardi. O‘zbekistonning geografik joylashuvi bu jarayonda muhim ahamiyatga ega edi. Yurtimizdagi observatoriya kuzatuvlarni birinchilardan bo‘lib boshlashi, keyin esa boshqa mamlakatlardagi ilmiy guruhlar ishni davom ettirishi ko‘zda tutilgandi. Dastlabki teleskoplardan biri Toshkent yaqinidagi Qumbel tog‘iga o‘rnatildi. Biroq bu jarayonda ayrim tashkiliy va texnik qiyinchiliklarga ham duch keldik. Uskunani avval boshqa joyda sinovdan o‘tkazib, barcha kamchiliklarini bartaraf etgan holda olib kelish maqsadga muvofiq bo‘lardi. Ammo bizning ilmiy



izlanishlarga bo‘lgan ishtiyoqimiz va g‘ayratimiz sababli teleskopni dastlab O‘zbekistonda o‘rnatishga kirishildi. Vaqt o‘tishi bilan uskunada turli nosozliklar yuzaga kela boshladi.

Bugungi kunda olimlar uchun xalqaro hamkorlik qilish, zarur ma’lumotlarni yuborish yoki mutaxassislardan maslahat olish ancha oson. Internet, elektron pochta va turli tezkor aloqa vositalari buning uchun keng imkoniyat yaratgan. Ammo 1980-yillarda vaziyat butunlay boshqacha edi. Masalan, teleskopda nosozlik yuz bersa, fransuz mutaxassislariga murojaat qilishning o‘zi bir jarayon edi. Muammoni qog‘ozga batafsil yozib, Fanlar akademiyasidan ruxsat olardim. So‘ng Markaziy telegrafga borib, navbat kutib, Fransiyaga faks jo‘natardim. Xatda nafaqat muammoni bayon qilardik, balki mutaxassislar bilan qaysi vaqtda telefon orqali bog‘lanishimiz mumkinligini ham ko‘rsatardik. U yoqdagilar murojaatni ko‘rib chiqib, o‘zaro maslahatlashar, belgilangan vaqtda bizga qo‘ng‘iroq qilib, zarur tavsiyalarni berishardi. Bir qarashda oddiy tuyuladigan texnik masalani hal etish uchun ba’zan bir necha kun kerak bo‘lardi.

Shunday sharoitda ham tadqiqotlarni to‘xtatmadik. Aksincha, yuzaga kelgan qiyinchiliklarni birgalikda yengib, kuzatuvlarni davom ettirdik. Loyiha yakunida oltita observatoriya tomonidan to‘plangan ma’lumotlarning qariyb 40 foizi O‘zbekiston hissasiga to‘g‘ri keldi. Bu mamlakatimiz olimlarining xalqaro ilmiy hamkorlikdagi salmoqli hissasi edi. 2015-yilda Fransiya hukumati tomonidan “Akademik palmalar” ordeni bilan taqdirlandim. Bu mukofot men uchun katta sharaf bo‘ldi. Chunki uning ortida nafaqat shaxsiy mehnatim, balki hamkasblarim, shogirdlarim va mamlakatimiz ilm-fanining xalqaro miqyosdagi yutug‘i mujassam.

– O‘zbekistonda astronomiya mavzusida gap ketganda, Maydanak observatoriyasini eslamaslik mumkin emas. Bu ilm maskaniga koinotdan qator to‘lqinlar kelib turishi haqida eshitganmiz. Bizni qiziqtirgani mamlakat ilm-fanidagi yangilanishlar to‘lqini bu muazzam obidaga ham yetib bordimi?

– Maydanak rasadxonasini Markaziy Osiyo falakshunosligining ko‘z gavhari deyish mumkin. So‘nggi yillarda mamlakatimizda ilm-fanning moddiy-texnik bazasini mustahkamlashga katta e’tibor qaratilayotgani ham biz uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Jumladan, Astronomiya instituti uchun Maydanak observatoriyasida foydalanishga mo‘ljallangan zamonaviy teleskop xarid qilindi. Uning qiymati qariyb 800 ming dollar. Ko‘zgusining diametri 80 santimetrni tashkil etadi. Teleskopning eng muhim afzalliklaridan biri – uning ko‘rish maydoni kengligidir. U 2×2 darajali osmon qismini bir vaqtning o‘zida kuzata oladi. Taqqoslash uchun, Oydan ko‘rinadigan burchakli o‘lcham taxminan yarim darajaga teng. Demak, ushbu teleskop bir tasvirning o‘zida qariyb 16 ta to‘lin Oyga teng osmon maydonini qamrab olishi mumkin. Bu esa qisqa vaqt ichida sodir bo‘ladigan, kutilmagan astronomik hodisalarni kuzatishda juda katta afzallik beradi. Hozir teleskopni sinovdan o‘tkazish ishlari olib borilmoqda. Yil oxirigacha uni to‘liq ishga tushirish rejalashtirilgan. Observatoriyaning yana bir katta ustunligi – uning geografik joylashuvida. Bizda tun bo‘lgan paytda dunyoning ayrim boshqa hududlarida hali kun bo‘ladi. Shu sababli, biror noyob hodisa bizning navbatchiligimiz vaqtida sodir bo‘lsa, uni kuzatib qolish imkoniyatimiz yuqori.

Umuman, astronomiya ham vaqt o‘tishi bilan juda katta o‘zgarishlarni boshdan kechirdi. Ilgari olimlar, asosan, ko‘z bilan ko‘rinadigan nurlarni kuzatgan bo‘lsa, XX asrda radioastronomiya paydo bo‘ldi. Keyinchalik kosmik apparatlar yordamida rentgen va gamma nurlari o‘rganila boshlandi. XXI asrga kelib esa gravitatsion to‘lqinlar astronomiyasi shakllandi. Bugun biz koinotni turli “to‘lqin uzunliklarida” – turli kanallar orqali o‘rganish imkoniyatiga egamiz. Bu esa ilgari ko‘rishning imkoni bo‘lmagan hodisalarni tadqiq qilish imkonini bermoqda.

Maydanak observatoriyasi gravitatsion astronomiya bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etayotgani quvonarli. Yangi teleskop yordamida kuzatuvlarni boshlaganimizdan keyin noyob astronomik hodisalardan birini aynan biz qayd etishimiz ham mumkin. Agar shunday hodisani birinchilardan bo‘lib optik diapazonda qayd eta olsak, O‘zbekiston astronomiyasi uchun katta ilmiy voqea bo‘ladi. Bu orqali o‘zbek olimlarining zamonaviy gravitatsion astronomiyaga qo‘shayotgan hissasi yanada yaqqol ko‘rinadi. Biz yaqinda NASA tomonidan amalga oshirilgan asteroidni tadqiq etishga qaratilgan yirik loyihada ham ishtirok etdik. Bu haqda ommaviy axborot vositalarida ko‘p gapirildi. O‘sha loyiha doirasida institutimiz xodimlari Kamoliddin Ergashev va Otabek Burxonovning nomlari kichik sayyoralarga berildi, NASA tomonidan minnatdorlik sertifikatlari topshirildi.

Bularning barchasi O‘zbekiston astronomiyasi xalqaro ilmiy jarayonlarda tobora faol ishtirok etayotganidan dalolat beradi. Bizning vazifamiz – ana shu imkoniyatlardan unumli foydalanib, zamonaviy astronomiyaning eng ilg‘or yo‘nalishlarida o‘z tadqiqotlarimizni olib borish va jahon ilm-faniga munosib hissa qo‘shishdan iborat.

– Sizningcha, insoniyat qachondir boshqa sayyorada doimiy yashash imkoniyatiga ega bo‘ladimi?

– Birinchi navbatda, insoniyat o‘ziga eng yaqin osmon jismi – Oyni o‘zlashtirishni rejalashtirmoqda. Oyda suv izlanayotgani bejiz emas. Uning qutblaridagi muzlardan suv olish, suvni kislorod va vodorodga ajratib, nafas olish uchun kislorod hamda yoqilg‘i olish mumkin. Shu bois, kelgusida Oyda ilmiy bazalar va kichik koloniyalar barpo etilishi ehtimoli yuqori. Keyingi manzil – Mars. Bugungi texnologiyalar bilan unga uchish taxminan 200 kun davom etishi mumkin. Ammo Marsga parvoz oddiy safar emas. U yerga odam yuborishdan oldin zarur infratuzilma – energiya manbalari, yashash joylari, issiqxonalar va boshqa tizimlar tayyorlanishi kerak. Chunki Mars atmosferasi juda siyrak, sharoiti esa inson hayoti uchun nihoyatda og‘ir.

Bir necha yil avval Mars sharoitiga taqlid qiluvchi tajribada ishtirok etgan bir ayol bilan suhbatlashganman. U uch erkak bilan birga maxsus yopiq muhitda 500 kun yashagan. Oziq-ovqat cheklangan, suv qayta ishlangan, tashqi dunyo bilan aloqa esa deyarli yo‘q. U tajribadan keyin eng ko‘p nimani xohlaganini so‘raganimda, “Bir parcha go‘sht yegim kelardi”, degan edi. Bu oddiy tuyuladi, ammo Marsga inson yuborish qanchalik murakkabligini ko‘rsatadigan juda yaxshi misol.

Endi olimlarni shunchaki yangi sayyora topish emas, unda hayot mavjud bo‘lishi mumkinmi, degan savol ko‘proq qiziqtirmoqda. Buning eng muhim shartlaridan biri – suyuq suvning mavjudligi. Yulduzdan sayyoragacha bo‘lgan, suv suyuq holatda bo‘lishi mumkin bo‘lgan masofa “Oltin soch zonasi” deb ataladi. Ya’ni, sharoit hayot uchun haddan tashqari issiq ham, haddan tashqari sovuq ham bo‘lmasligi kerak.

Biz hatto boshqa sayyoralarga xabar yuborishga ham urinib ko‘rdik. Bir necha yil avval havaskor astronomlar tashabbusi bilan 128 yorug‘lik yili uzoqlikdagi Kepler-18b sayyorasiga xabar yuborilgan. Unda Mirzo Ulug‘bekning yulduzlar katalogi ham bor edi. Agar u yerdan xabar qaytadigan bo‘lsa, uning kelishi uchun kamida 256 yil kerak bo‘ladi. Albatta, hozircha hech qanday javob olganimiz yo‘q. Ammo bu insoniyatning koinotdagi boshqa hayot bilan aloqa qilishga bo‘lgan intilishini ko‘rsatadi. Biz, astronomlar, optimistmiz. Koinot nihoyatda katta. Shunday ekan, qayerdadir hayotning boshqa shakllari mavjud bo‘lishi ehtimolini inkor etib bo‘lmaydi. Eng katta orzumiz – bir kun kelib ular bilan tinch va ilmiy aloqa o‘rnatishdir.

– Koinotni o‘rganish hayot haqidagi qarashlaringizning shakllanishida qanday o‘rin tutgan?

– Amerikalik mashhur astronom Karl Sagan buning juda ta’sirli misolini keltirgan. 1977-yilda uchirilgan “Voyajer-1” kosmik apparati Yerdan milliardlab kilometr uzoqlikdan sayyoramizning tasvirini olgan. Unda Yer koinotning ulkan kengligida mo‘jaz zangori nuqta bo‘lib ko‘rinadi. Shu nuqtaga qarab, Yerda sodir bo‘layotgan barcha voqealarni tasavvur qilish mumkin: davlatlar o‘rtasidagi nizolar, urushlar, siyosiy qarama-qarshiliklar, odamlarning kundalik tashvishlari, hatto bir-birimiz bilan arzimas sabablar tufayli ranjishlarimiz – barchasi ana shu kichkina nuqta ichida sodir bo‘ladi. Astronom sifatida koinotga qaraganingizda, ko‘p kundalik muammolarning aslida qanchalik mayda ekanini his qilasiz. Albatta, insonning shaxsiy tashvishlari muhim. Ammo ularni butun hayotimizning mazmuniga aylantirib yubormasligimiz kerak.

Men ba’zan tabiat manzaralarini – tog‘lar, o‘rmonlar, ko‘llar, shaharlarni tomosha qilib, bir narsani o‘ylayman: shunchalik go‘zal dunyoni insoniyat qanday qilib urushlar, vayronagarchiliklar bilan yo‘q qilishi mumkin? Inson aql-zakovati bilan shunday buyuk yutuqlarga erishdi, koinotni o‘rganmoqda, yangi sayyoralarni izlamoqda. Nahotki, bularning barchasini bir lahzalik siyosiy manfaat yoki adovat tufayli xavf ostiga qo‘ysa?

Menimcha, Koinotni o‘rganish insonni, avvalo, kamtarroq, bag‘rikengroq va Yerning qadriga yetadiganroq qilishi kerak. Chunki cheksiz Koinot bag‘rida bizning Yerimiz – juda kichik, ammo biz uchun yagona va bebaho maskan. Shuning uchun astronomiya menga bir hikmatni chuqur anglatdi: Koinot qanchalik katta bo‘lmasin, insonning eng asosiy vazifalaridan biri – o‘zi yashayotgan mo‘jaz zangori sayyorani asrash va undagi hayotni qadrlashdir.

Suhbatdosh:
Vasila HABIBULLAYEVA



“Ilm asosiga qurilmagan ulug‘likning oxiri xorlikdir.

Yusuf Xos HOJIB”

MILLAT FIDOYILARI

MUBHAM ZAMON

1937-yil 19-sentyabr. Qatag‘onning qonli to‘lqini yana bir ziyoli, ma’rifatparvar insonni o‘z domiga tortib ketdi. O‘zbekiston SSR Ichki ishlar xalq komissarligi davlat xavfsizligi boshqarmasi 4-bo‘limi taqdim etgan 2332-sonli ish bo‘yicha buxorolik Norjon Solimov otuvga hukm qilindi. Ayblov nima edi, dersiz? “Milliy ittihod” tashkiloti bilan aloqadorlik, sovet hokimiyatini tanqid qilganlikmi? Bular-da, bor. Biroq asosiy ayblov...

Norjon Solimov 1887-yili Buxoro shahrida tug‘ilgan. Devonbegi madrasasi ko‘chasida yashagan. Hayotiga oid dastlabki aniq ma’lumotlar 1915-yildan boshlanadi. O‘sha yillari u Labi Hovuz bo‘yida, birinchi dorixona qarshisida mustaqil do‘kon va ko‘shk (kiosk) ochib, turli adabiyotlar, darsliklar hamda o‘zbek gazetalarini sotish bilan shug‘ullanadi. Bu faoliyati 1929-yilga qadar, qariyb o‘n besh yil davom etadi. Solimovning o‘zi 1937-yilgi tergovda shu kasbi tufayli mayda savdogar hisoblangani, ammo hech qachon saylov huquqidan mahrum etilmaganini alohida ta’kidlaydi.

U kitob savdosini boshlagan yillar Buxoro jamiyatida ma’rifiy, siyosiy qarashlar o‘zgarib borayotgan pallaga to‘g‘ri keldi. XX asr boshlarida jadidlik harakati ta’sirida yangi usul maktablari, darslik va matbuotga qiziqish kuchaygandan kuchaydi. 1912-yili “Buxoroyi sharif” gazetasining nashr etilishi ham shu jarayonning muhim voqealaridan biri bo‘lgan. Biroq amirlik davrida yangi fikrlarni tarqatish, tabiiyki, oson kechmagan. Matbuot va ma’rifat masalalari tobora siyosiy tus olib, jamiyatdagi islohot tarafdorlari bilan mavjud tuzum o‘rtasida qarama-qarshiliklar avj olgan.

1917-yilgi inqiloblardan keyin ziddiyatlar yanada keskinlashdi. 1920-yil sentyabrda Buxoro amirligi tugatilib, Buxoro Xalq Sovet Respublikasi tashkil etildi. Hokimiyat o‘zgarishi bilan shaharning siyosiy hayoti, savdo munosabatlari va matbuot muhiti ham yangicha yo‘nalish oldi. “Buxoro axbori”, so‘ng “Ozod Buxoro” kabi gazetalar ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni yorita bordi. Shu bilan birga, Turkiya, Eron va Yevropadagi turkistonlik muhojirlar muhitida ham siyosiy nashrlar keng tarqalgan. Milliy mustaqillik, Turkistonning kelajagi, sovet hokimiyatiga munosabatlar gazeta-jurnallarda muhim o‘rin tutgan.

Norjon Solimovning do‘konida sotilgan xorijiy nashrlar oradan yillar o‘tib, 1937-yilgi tergovning asosiy mavzularidan biriga aylandi. Kecha kitob xarid qilgan, o‘qish uchun adabiyot olib turgan kishilar endi tergov kursisida o‘sha nashrlarni birma-bir sanab berishardi. Xususan, 1937-yil 7-avgustda so‘roq qilingan shaxslardan biri Solimovni 1920-yildan “Milliy ittihod” tashkilotining faol a’zosi sifatida bilganini aytadi. Uning ko‘rsatmasicha, Solimov 1921-1922-yillarda tashkilot topshirig‘iga ko‘ra milliy-siyosiy mazmundagi adabiyotlarni tarqatish bilan shug‘ullangan. Buxorodagi do‘konida Berlinda nashr etilgan “Ozodiy Sharq”, Parijda chiqqan “Yangi Turkiston”, Turkiyada bosilgan “Yangi Kavkaz” kabi nashrlarni sotgan. Guvoh bu ma’lumotlarni umumiy ta’rif bilan cheklamaydi. U 1929-yilgacha Solimovdan adabiyotlarni o‘qish uchun shaxsan olib turganini, jumladan, “Sobir Rashod” jurnali, “Ozodiy Sharq”, “Milliy ittihod” va “Ittihodi Islom”ga oid materiallarni yaxshi eslashini bildirgan. Shuningdek, u Solimov faoliyatini Qori Bosit Muhammadiyev boshchiligidagi guruh bilan bog‘laydi.

Tergov uchun bu ko‘rsatmalar ayni muddao edi. Ayni vaqtda mazkur ma’lumotlarning guvoh ko‘rsatmalari ekanini unutmaslik kerak. Negaki, Solimovning o‘zi “Milliy ittihod”ga a’zo bo‘lganini ham, uning topshiriqlarini bajarganini ham tan olmagan. “Guvoh” Solimovning Anvar Posho haqidagi adabiyotlarga qiziqqanini ham bildiradi. Uning so‘zlariga ko‘ra, Solimov uchrashuvlarida Anvar Posho haqida o‘qishni tavsiya qilib, uni mashhur va aqlli inson sifatida ta’riflaydi. Bu tafsilot ham tergov bayonnomasida siyosiy ayblovlar qatorida keltiriladi.

1929-yildan keyin Solimovning do‘kon faoliyati qanday davom etgani haqida biz ko‘rib chiqayotgan hujjatlarda batafsil ma’lumot yo‘q. Ammo aynan shu davrda O‘zbekistonda xususiy savdo va mustaqil iqtisodiy faoliyatga munosabat tubdan o‘zgarib borayotgan edi. 1920-yillar oxiri va 1930-yillar boshida sovet hokimiyati iqtisodiyotni davlat nazoratiga o‘tkazish, xususiy mulkchilikni cheklash va jamiyatning turli qatlamlarini siyosiy jihatdan qayta tasniflash siyosatini kuchaytirdi. Bunday sharoitda “sobiq savdogar” degan ijtimoiy ta’rif ham insonning o‘tmishiga nisbatan siyosiy munosabatni ifodalovchi belgilardan biriga aylanishi mumkin edi.

Solimovning bundan keyingi hayoti haqidagi ma’lumotlar ham asosan ko‘rsatmalarda keladi. Jumladan, ulardan birida u 1935-yilgacha sovet hokimiyati faoliyatini tanqid qilib kelgani aytiladi. Bu fikrlar, ayniqsa, 1934-yilda Abduqodir Muhiddinovning otib tashlanishi bilan bog‘liq holda tergov materiallariga kiritiladi. Guvohning ta’kidicha, Solimov sovet hukumati



O‘zbekistonda inqilobni amalga oshirishda ilmli va tajribali kishilardan foydalanib, keyinchalik ularni hibsga olayotgani va otib tashlayotganidan yozg‘irgan. 1937-yil 25-avgustda tuzilgan ayblov xulosasida unga nisbatan shu mazmundagi fikrlar keltiriladi. Jumladan, Solimov “Bu qanday hukumat ekanligini tushunish qiyin” deb, mavjud hokimiyatning tezroq barham topishini istaganlikda ayblangan.

Mazkur ko‘rsatmalar 1930-yillardagi siyosiy muhitni ochib beradi. Bu yillarda sovet hokimiyatining avvalgi davrlardagi tarafdorlari, davlat va jamoat arboblari ham ta’qibga uchray boshlagan, ayrim shaxslarning hibsga olinishi yoki qatl etilishi yuzasidan xabarlar jamiyatda xavotir uyg‘otmoqda edi. Qolaversa, bu voqealarga bildirilgan munosabatning o‘zi keyinchalik “aksilinqilobiy kayfiyat” dalili o‘rniga o‘tardi. Norjon Solimovning tergov ishida 1934-yilga oid suhbatlar alohida ayblovga aylantirilgani shu holatni yaqqol ifodalaydi.

1937-yilga kelib, mamlakatda siyosiy qatag‘onlar keng avj oldi. Iyul oyining oxirida NKVDning ommaviy jazolash operatsiyalarini boshlash haqidagi 00447-sonli buyrug‘i qabul qilinib, unda “sobiq quloqlar”, “jinoiy unsurlar” va “sovetlarga qarshi unsurlar”ga nisbatan maxsus tartibda jazo choralarini qo‘llash belgilangan edi. Ishlarni ko‘rib chiqishda sudning odatdagi tartibi o‘rniga NKVD “uchliklari” faoliyatiga tayanildi. O‘zbekistonda ham 1937-yil avgustidan bu jarayon jadallashdi.

Ana shu keskin sharoitda Norjon Solimovning 1937-yil iyulidagi bir suhbati tergov materiallariga kiritildi. Ko‘rsatmaga ko‘ra, guvoh taxminan 15-iyul kuni Solimovni muzey yonida uchratib qoladi. Suhbat chog‘ida Solimov: “Sovet Ittifoqida hozirgi vaqtda odamlar azob chekmoqdalar va ochlikdan qiynalmoqdalar, sovet hukumatidan yaxshilik kutib bo‘lmaydi”, deydi. Qo‘shimchasiga, Solimovning sovet hokimiyati xalqqa yaxshilik keltirmagani, Buxoro Xalq Sovet Respublikasi davri bilan keyingi hokimiyat o‘rtasida farq borligi haqida ham gapirganini bildiradi. Tergovchilar bu suhbatni hokimiyatni obro‘sizlantirish va aksilinqilobiy targ‘ibot olib borish sifatida baholashadi.

Shu tariqa, 1937-yil 19-avgustda Norjon Solimov hibsga olinadi. 25-avgustda Ichki ishlar xalq komissarligi Buxoro sektori tezkor vakili Melkumov ayblov xulosasini rasmiylashtirdi. Unda Solimov “Milliy ittihod”ning faol a’zosi sifatida 1921-1922-yillarda Germaniya, Turkiya va Erondan keltirilgan adabiyotlarni tarqatgani, tashkilotning maxfiy hujjatlari va aloqalarini to‘plagani, sovet hokimiyatiga qarshi targ‘ibot olib borgani qayd etildi. Hujjatda davlat xavfsizligi leytenanti Rimskiy va serjant Melkumovning roziligi bildirilgan. Ish O‘zbekiston SSR NKVDsi “uchligi” ko‘rib chiqishi uchun yuborildi.

1937-yil 19-sentyabrda, 2332-sonli ish bo‘yicha Norjon Solimov otuvga hukm qilindi. Bir paytlar Labi Hovuz bo‘yida odamlar qo‘liga tutqazilgan kitob-u gazetalar oradan yillar o‘tib o‘z sotuvchisining boshiga balo bo‘lib qaytdi. Kimningdir o‘qigan kitobi, kimningdir xotirasida qolgan suhbat, qachonlardir aytilgan bir og‘iz haq so‘z – barchasi endi ayblov hujjatlarida muhrlangan. Kecha ma’rifat tarqatgan qo‘llar bugun kishanlangan, kitob sotgan inson esa otuvga hukm etilgandi.

Qatag‘onning eng mudhish haqiqati ham shu: kitobni sotish, kitobdorni sotish, kitobni o‘qish, o‘qitganni va uqiganni eslash ham inson taqdiriga nuqta qo‘yadigan mubham zamon edi...

Rustambek SHAMSUTDINOV,
tarix fanlari doktori,
professor

YORUG‘ XOTIRALAR

FAYZLI INSON

Nizom Komilov – shoir, tarjimon, muharrir, bag‘ri keng ustoz, sadoqatli do‘st edi. Bularning barini bitta so‘z bilan ifodalash lozim bo‘lsa – Inson. Ha, aynan bosh harf bilan yoziladigan Inson edi. Bunday sharafga, bunday maqomga muyassar bo‘lish oson emas. Zero, bosh harf bilan yoziladigan Inson darajasiga ko‘tarilish uchun dunyoni hayratga soladigan kashfiyotlar qilish, jahon adabiyotida iz qoldiradigan asarlar yaratish, odamlar uzoq yillar aytib yuradigan ashulalar kuylash yoxud katta mansabdor bo‘lish shart emas. Chunki odam bolasi Alloh bergan qobiliyat va iste’dodiga yarasha olim, yozuvchi, san’atkor, davlat arbobi bo‘lishi mumkin, lekin katta harf bilan yozishga loyiq Inson bo‘lish oson emas. Binobarin, bandaning iste’dodi bilan insoniy fe’l-atvori hamisha ham uyg‘un kelavermaydi. Kimdaki, bu fazilatlar bir darajada mavjud bo‘lsa – nur ustiga nur, bunday insonlarni Yaratganning suyukli bandalari, deyish mumkin. Yana ham Alloh bilguchidir.

Nizom aka kashfiyotlar qilmagani, ashula kuylamagani-ku aniq, shular barobarida, adabiyotimizda shov-shuv bo‘lgan asar ham yaratgani yo‘q. Ammo u kishining milliy adabiyotimiz rivojiga, o‘zbek o‘quvchilari dunyoqarashining kengayishiga qo‘shgan hissasi uncha-muncha shoir-u yozuvchi xizmatidan ko‘p bo‘lsa ko‘pki, kam emas. Nizom Komilov ijodning murakkab, mashaqqatli sohasini, janrini tanladi. Bu – tarjimonlik. Buning ma’lum sabablari bor.

Yuqorida Nizom Komilovga ta’rif berganimizda, shoirligini aytdik. Aksariyat ijodkorlar singari Nizom aka ham faoliyatini she’r yozishdan boshlagan, she’rlari gazeta va jurnallarda, to‘plamlarda nashr etilgan. Shunday kezlarda, ya’ni, o‘tgan asrning 50-yillari oxirlari, 60-yillarining boshlarida matbuotda Erkin Vohidov, Abdulla Oripov degan yosh shoirlarning she’rlari chiqa boshlaydi. Ularning har bir she’ri tilga tushadi, bahs-munozaralarga sabab bo‘ladi. Ularni kitobxonlar hayrat va hayajon bilan o‘qiydi, eshitadi. 1965-yilda O‘zbekiston xalq shoiri Mirtemir so‘zboshisi bilan Abdulla Oripovning “Mitti yulduz” kitobi nashrdan chiqadi. Yupqagina bu kitob yetuk adabiyotshunoslar, she’riyat muxlislari e’tiboriga tushadi, o‘zbek she’riyatida mutlaqo yangi ovoz, yangi iste’dod paydo bo‘lgani aytiladi.

Bularni kuzatgan Nizom Komilov hayratga tushadi... Va she’r yozishdan voz kechadi. O‘zining iqtidori darajasini bilish, uni tan olish qudrati hammaga ham nasib etavermaydi. Buning uchun odam jasoratli, mard bo‘lmog‘i lozim. Nizom Komilov ana shu fazilatlarini namoyon eta oldi. Qoyil qolmay ilojingiz yo‘q. Bunday mardlik boshqa ayrim shoirlarda ham bo‘lsa edi, adabiyotimiz bachkana narsalardan, biroz bo‘lsa-da, tozalanarmidi...



Tarjimonlikni mashaqqatli kasb, dedik. O‘ylab ko‘ring, dunyoga mashhur asarni tarjima qildingiz, kitobxonlar qiziqib o‘qiydi. Falon yozuvchining romani zo‘r ekan, degan shov-shuv bo‘ladi. Shu zo‘r asarni kim tarjima qilgani xususida deyarli gapirilmaydi. Kitobda ham bir chekkada kichkina qilib Falonchi Pismadonchi tarjimasi, deb yozib qo‘yiladi, xolos. Holbuki, bir romanni tarjima qilish uchun mutarjim ozmuncha mehnat sarflaydimi?! Muallif o‘z asarini o‘zi xohlagan uslubda, tafakkur doirasi yetgancha erkin yozaveradi. Tarjimonda bunday erkinlik, imkoniyat yo‘q. U muallif uslubini buzishga, muayyan asarda tasvirlangan doiradan chiqishga haqqi yo‘q. Iboralar, obrazlar, o‘xshatishlar, so‘zlarning o‘zbekcha muqobilini topishdagi mashaqqatlarni-ku, aytmay qo‘ya qolaylik. Shu ma’noda, Qodir Mirmuhamedov, Vahob Ro‘zimatov, Hasan To‘rabekov, Mirziyod Mirzoidov, Miad Hakimov, Ibrohim G‘afurov kabi atoqli tarjimonlarimizning sabr-toqatiga qoyil qolaman. Ular tarjima qilgan ayrim asarlarni o‘qishning o‘zi qancha mehnat, sabr, bilim talab qiladi. Endi, ularni o‘zbek tiliga o‘girish, o‘girganda ham kitobxonga ma’qul bo‘ladigan darajada tarjima qilish, aytishga oson.

Nizom Komilov ana shunday mashhur tarjimonlarimiz safidan munosib o‘rin olgan. U kishi o‘zbek tiliga ag‘dargan ba’zi asarlarni keltiraman: Nodar Dumbadzening “Abadiyat qonuni”, “Oq bayroqlar” romanlari, “Kukaracha” qissasi, Erix Mariya Remarkning “Uch og‘ayni”, “G‘arbiy frontda o‘zgarish yo‘q” romanlari, Aleksandr Belyayevning “Kes yulduzi” ilmiy-fantastik romani, Irving Shouning “Tungi darbon”, Jorj Simenonning “Megri ministr huzurida”, “Megri va daydi” romanlari, shuningdek, Arkadiy Gaydar, Fozil Iskandarning ayrim asarlari. U kishi tarjima qilgan filmlarni, pyesalarni aytmaysizmi. Xalq iborasi bilan aytganda, sayratib yuborgan. Bular turli millat yozuvchilari, ularning har biri o‘z uslubiga ega, bir-biriga yaqin ham kelmaydi, bu asarlar turli davr, turli tuzum haqida. Ularning barchasini o‘zbek o‘quvchisiga manzur bo‘ladigan darajada tarjima qilish uchun mutarjim qancha narsani bilishi kerak. Eng asosiysi, tarjimon o‘zbek tiliga har qanday asarni o‘girish mumkinligini, buning uchun o‘zbek tilining so‘z boyligi yetarli ekanini amalda ko‘rsatmog‘i darkor. Nizom Komilov buni uddasidan chiqqan. U kishi tarjima qilgan asarlarni o‘qiganda, kitobxon uning tarjima ekanini unutadi, xuddi o‘zbek tilida yozilganday ravon o‘qiladi.

Shu o‘rinda kolumbiyalik mashhur yozuvchi, Nobel mukofoti sovrindori Gabriel Garsia Markesning Nizom Komilov tarjima qilgan “Atirgulning tikoni” novellasi va tarjimon mahorati to‘g‘risida ikki og‘iz so‘z aytishni lozim topdim. Hikoya “Tafakkur” jurnalining 2000-yil 4-sonida bosilgan.

Avvalo shuni ta’kidlash kerakki, Markesning mazkur hikoyasi uslubi, ohangi jihatidan adibning boshqa asarlaridan farq qiladi. Hajman uncha katta bo‘lmagan novellada baxt va baxtsizlik, omad va omadsizlik, shohona hayot-u g‘ariblik, taqdir hukmi oldida har qanday inson – u boy-badavlatmi, kambag‘almi, dasti darozmi yoki qo‘li kaltami – ojiz ekani haqida hikoya qilingan. Nena Dakonte ham, Billi Sanches de Avila ham qo‘li har tomonga yetadigan oilaning farzandlari. Hali yigirmaga ham bormagan bu yoshlar bir muddat aysh-u ishrat og‘ushida, osmon-u falaklarda yashaydi. Ammo arzimagan sabab – atirgulning tikoni Nena Dakontening barmog‘iga kirib ketishi oqibatida ular ko‘p mashaqqatlarga duchor bo‘ladi. Avvaliga qiz ham, eri Billi Sanches ham bunga unchalik e’tibor bermaydi. Mana shu e’tiborsizlik, loqaydlik og‘ir fojiaga olib boradi. Begona yurtda ular oddiy odamlar ko‘yiga tushadi. Ota-onasining yordamisiz hech narsa qila olmasligi ayon bo‘ladi. Xotini shundoqqina yonida, qo‘l uzatsa yetgulik joyda o‘lim bilan kurashadi, ammo u – Billi Sanches chorasiz, qo‘lidan hech narsa kelmaydi. Dahshatli joyi shundaki, xotini vafot etganini ham uch kundan keyin biladi. Xullas, dunyoga mashhur yozuvchining ushbu hikoyasi o‘quvchini chuqur o‘yga toldiradi, undan turli xulosalar chiqarish mumkin. Ana shunday dardli, iztirobli hikoyani Nizom Komilov qo‘shiqday tarjima qilgan. Uni o‘qishga kirishgan odam oxiriga yetganini bilmay qoladi. Tarjimon tilimizning naqadar boy, go‘zal, serjilo ekanini namoyon etgan.

Nizom Komilovni bag‘ri keng ustoz, dedik. Bunga bitta misol keltiraman. 1970-yillar, men “O‘zbekiston madaniyati” gazetasida ishlar edim. Gazeta-jurnallarda, turli to‘plamlarda hikoyalarim chiqib turardi. Bir kuni xonamga Nizom aka kirib keldi. U kishi G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyotida ishlar, bizning tahririyat ham, nashriyot ham mashhur “Navoiy-30” binosida edi. To‘g‘risi, ajablandim. U paytda Nizom aka bilan juda yaqin emasdik, o‘zimdan katta yozuvchilar bilan salom-alikdan nariga o‘tmagan edim. Nizom aka yosh yozuvchilarning hikoyalaridan iborat to‘plam tayyorlanayotgani, shunga besh-oltita hikoya berishimni aytdi. Tabiiyki, xursand bo‘ldim. Bir necha kundan keyin hikoyalar berdim. Oradan ma’lum muddat o‘tgach, Nizom aka yana xonamga kirib keldi. Qo‘lida mening hikoyalarim. Tahrir qilingan. Kechagidek esimda, zangori ruchkada tahrir qilingan. “Shu tahrirlarni kiritib, ko‘chirtirib bering”, dedi. Shunda men Nizom akaning yoshlarga mehribonligini, kamtarligini ko‘rib hayratga tushganman. Holbuki, chaqirsa bo‘lardi, uchib borardim oldiga.

Keyinchalik u kishi bilan yaqinlashib ketdik. Turli tadbirlarda, katta-kichik davralarda ko‘p suhbatlashganmiz. Nihoyatda odamoxun, ko‘ngli ochiq, dangal, cho‘rtkesar, hazilmutoyibaga o‘ch, dilkash inson edi. Do‘stlariga, safdoshlariga, shogirdlariga sodiq edi, Nizom aka. U kishi o‘tirgan davra fayzli bo‘lardi. O‘ziyam juda fayzli odam edida...


Nizom Komilov haqida ko‘p gapirish, ko‘p yozish mumkin. Yodnomamiz avvalida ta’kidlaganimizdek, u kishi bosh harf bilan yozishga loyiq Inson edi. U kishini yaqindan bilganlar, jumladan, mening xotiramda ana shunday taassurot qoldirgan.

Mamatqul HAZRATQULOV

YANGI NASHR

SOHIBQIRON SABOQLARI

Sohibqiron tavalludining 690 yilligi munosabati bilan “Amir Temur saboqlari” nomli maqolalar to‘plami nashr etildi. “Yangi avlod” nashriyoti tomonidan chop etilgan mazkur kitob 384 sahifadan iborat.



To‘plamdan O‘zbekiston tarixchi olimlari, adabiyotshunoslar va tadqiqotchilarning Xalqaro Amir Temur jamoat fondi tomonidan tashkil etilgan respublika va xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda taqdim etilgan ma’ruza hamda ilmiy maqolalari o‘rin olgan. Shuningdek, buyuk bobomizning hayoti va faoliyati, harbiy san’ati, davlat boshqaruvi, Temuriylar davri madaniyati va ilm-fani, tarixiy merosi bilan bog‘liq masalalar yoritilgani zukko o‘quvchi diqqatini tortishi tabiiy.

To‘plamdan atoqli adib va olimlar: Dilorom Yusupovaning “Temuriylar yaratgan bog‘lar”, Temur Shirinovning “Buyuk Temur”, Omonullo Bo‘riyevning “Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma”si 1-kitobi “Muqaddima” haqida”, Hamidulla Dadaboyevning “Amir Temur – buyuk harbiy taktik”, Muhammad Alining “Shonli tariximizning shoh asari”, Odil Olimjonovning “Buyuk Temur – jahon zamonaviy soliq siyosati asoschilaridan biri” kabi maqolalari o‘rin olgan.

Mazkur nashr Amir Temurning boy tarixiy merosini chuqur o‘rganish, tarixiy haqiqatni ilmiy asosda yoritish, milliy o‘zlikni anglash va yosh avlod qalbida tarixiy xotira hamda vatanparvarlik tuyg‘ularini mustahkamlashga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir. “Amir Temur saboqlari” to‘plami tarixchi olimlar, tadqiqotchilar, oliy o‘quv yurtlari talabalari va milliy tariximizga qiziquvchi keng kitobxonlar ommasi uchun muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Jasmina ISROIL

TARMOQLARDA NIMA GAP?



KINOSHUNOS NIMAGA KERAK?

Davlat rahbari kecha kino sohasi vakillari bilan uchrashdi va bir qator o‘zgarishlar e’lon qilindi. Shular orasida “Kinoshunoslar klubi” tashkil etilishi e’tiborimni tortdi. Aynan shu sohada o‘qiganim uchun fikrlarimni qisqacha yozishga qaror qildim.

Xullas, tomdan tarasha tushgandek, 2016-yilda san’at oliygohida “Kino tanqidi va tahlili” degan yo‘nalish ochiladi. Qariyb 10 yilda bu dargohni 100 dan ortiq talaba aynan shu soha vakili sifatida bitirdi. Natija qanday? Dunyo tugul Markaziy Osiyo darajasidagi biror kinoshunos yetishib chiqmadi. O‘zbek kinosi atrofida qandaydir olamshumul maqolalar yozilmadi, tortishuvlar yuz bermadi! Xo‘sh, nega? Avvalo, institutda mazkur yo‘nalish, katta ehtimol, zo‘rma-zo‘raki, navbatdagi qandaydir qaror yoki buyruq asosida yo‘lga qo‘yilgan. Talabalar to‘g‘ri mezon asosida saralab olinmaydi. Darslik, o‘qitish uslubi umuman o‘ylab ham chiqilmagan. Sohaning yetuk pedagoglari jalb etilmagan. 4 yil o‘qigan talabalarning aksariyati biror jo‘yali retsenziya ham yozolmaydi.

Eng achinarlisi esa, yozish qobiliyatining shakllanishi ham bu soha vakiliga moliyaviy yoki shaxsiy karyera eshiklarini ochmaydi. Qo‘lingizdagi diplom bilan hech qaysi eshikni taqillatib borolmaysiz. Yagona yo‘l oliygohda qolish. Ammo, oliygoh har yili 14-15 kishini o‘zida olib qololmaydi. Aksiga olib, ayni shu yillarda o‘zbek kinosi ham faqat pastga qulasa quladiki, hech yuksalmadi. Bundan tashqari, kinoshunoslik yillar davomida unutilib ham bo‘lgan – katta va yosh avlod orasida ulkan tafovut bor. Bizga darsliklarda nomi keltirilgan kinoshunoslarning barchasi 80-90 yoshni qoralagan yoki vafot etgan.

Keyingi masala, yillar davomidagi jimlik natijasida o‘zbek ijodkorlari ham tanqidga qarshi immunitetdan butkul ayrilgan. Qaysidir filmga bildirilgan munosabatni darrov dushmanlik deb qabul qilishadi. Qaysidir film ustidagi toza bahs-munozara soha uchun faqat foyda keltiradi. Yoshlar o‘rtasida bu jarayon tabiiy qabul qilinishi kerak!

Kinematografiya rivojlanishi va yangi bosqichga chiqishi uchun kinoshunoslik ham qayta jonlanishi zarur. Bu yog‘iga umid bilan kuzatamiz va kutamiz!

Shohrux NORQULOV,
Facebook

FORUM

O‘zingizdan qolar gap yo‘q, hurmatli gazetxon, shu oy boshidan beri hammaning og‘zida bir gap, nimamish, “Oydin gurunglar” bo‘larmish... Bitta to‘yning yettita nog‘orasi bo‘lganidek, o‘ziyam har kim har xil tushundi. El orasida jadid olimi Abdurauf Fitratning “Chig‘atoy gurungi” qaytdimi, degan gaplar ham quloqqa chalindi. Yana bu tadbir olim-u ulamo, shoir-u shuaro, musavvir va musammimniki-yu, dasturxoni bankirlarniki, deguvchilar ham topildi. Aslida esa “Oydin gurunglar”ning maqsadi ham, qamrovi ham ancha keng. Vaziyatga oydinlik kiritish uchun, keling, Sizga bobomiz Amir Temur musammanidek mukammal o‘ylangan mazkur anjuman haqida biroz gurung bersam...

Ma’lumingizkim, joriy yilning 22-may kuni Davlatimiz rahbari mamlakatimizda Milliy kitobxonlik harakatini boshlab bergan edi. Ushbu harakat doirasidagi vazifalarni bajarish hamda 21-oktyabr – O‘zbek tili bayramini nishonlash maqsadida Toshkent va Xiva shaharlarida “Oydin gurunglar – 2026” xalqaro ijodiy forumi tashkil etildi.



OYDAN-DA, KUNDAN-DA GO‘ZAL GURUNGLAR

Mazkur anjumanning o‘ziga xosligi shundaki, unda kitobxonlik va san’atni rivojlantirishga ilk bor iqtisodiy loyiha sifatida yondashildi. Shu bois, forum ishida Vazirlar Mahkamasi, Madaniyat vazirligi va Yozuvchilar uyushmasi bilan bir qatorda, Markaziy bank hamda yurtimizning yetakchi tijorat banklari ham faol ishtirok etdi. Bunday hamkorlik ijod ahlini qo‘llab-quvvatlashda yangi iqtisodiy imkoniyatlarni ochib berishi bilan alohida e’tiborga molikdir.

Hammasi 19-oktyabr kuni Toshkentdagi “Hyatt Regency” mehmonxonasida boshlandi. Mehmonlar kitoblar ko‘rgazmasi bilan tanishgach, Markaziy bank raisining birinchi o‘rinbosari Nodirbek Saydullayev so‘zga chiqib, faol tashkilotlarni taqdirladi. Shundan so‘ng “Moliyaviy bilimlar” kitoblari taqdimoti bo‘lib o‘tdi. Prezident maslahatchisi Olimjon Davlatov noshirlarni qo‘llab-quvvatlash masalasiga to‘xtalib, ularga esdalik sovg‘alari topshirdi. Milliy kutubxona rahbari Umida Teshaboyeva “Mahalla kutubxonasi” loyihasini taqdim etgandan so‘ng Davlat tili departamenti direktori Nodir Xolbo‘tayev nutqidan so‘ng hamma “choy-gurung”ga chiqdi.

Bolalar uchun mo‘ljallangan “Daromad Kiberovchiga qarshi” nomli yangi komiks taqdimoti ham o‘tkazildi. Unda yosh avlodga puldan to‘g‘ri foydalanish va internet firibgarlaridan himoyalanish qoidalarini sodda tilda tushuntirilgan. Yana bir ezgu tashabbus e’tiborimni tortdi. Bir qator vazirlik va tashkilotlar Markaziy bank bilan hamkorlikda “Mahalla kutubxonasi” loyihasini yo‘lga qo‘yibdi. Tijorat banklari ham bu xayrli ishdan chetda qolmay, mahallalarda kutubxonalar tashkil etish uchun mablag‘ ajratibdi. Kitob topishni osonlashtirish uchun kutubxonalarni yagona tarmoqqa birlashtiruvchi “Bitik.online” platformasi ham taqdim etildi. Ushbu tizimning imkoniyatlari to‘liq yo‘lga qo‘yilsa, kitobxonlar o‘zlariga kerakli asarni qayerdan topish mumkinligini oson aniqlaydi. Mana buni yangilik desa bo‘ladi, baraka topishsin. Ana endi gurungning eng qizziq joyiga o‘tsak bo‘ladi... Qani, yuring, Xivaga, o‘sha sehrli va ertaknamo qadimiy shaharga yo‘l olamiz!

Ma’lumki, Davlatimiz rahbarining 103-sonli Farmonida belgilangan vazifalar ijodiy birlashmalarni qo‘llab-quvvatlash, ularning iqtisodiy faolligini oshirish, o‘zbek madaniyati va san’atini xalqaro miqyosda targ‘ib etish kabi maqsadlarni qamrab oladi. Ana shu yo‘nalishda tegishli davlat tashkilotlari, madaniyat muassasalari, tijorat banklari va ijodiy uyushmalar hamkorlikka kirishgan. Ijodkorlarning tadbirkorlik faoliyatini rag‘batlantirish, ular yaratayotgan mahsulot va xizmatlarni kengroq bozorga olib chiqish, yangi daromad manbalarini shakllantirish hamda moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirish bu hamkorlikning muhim yo‘nalishlaridan biridir. Shu maqsadda 22–25-oktyabr kunlari Xiva shahridagi “Arda Xiva” majmuasida “Oydin gurunglar – 2026” xalqaro ijodiy forumi davom etdi. O‘zbekiston, Turkiya, Ozarbayjon, Qozog‘iston va Qirg‘izistondan kelgan to‘rt yuzdan ortiq ijodkor – taniqli yozuvchi va shoirlar, rassomlar,



rejissyorlar, san’atkorlar hamda yurtimizning o‘n ikkita xususiy teatri vakillari bir maydonda jam bo‘ldi.

Avvalo, mehmonlar ochiq osmon ostidagi ko‘hna Ichan qal’a bilan tanishdilar. Qadimiy obidalar, tarixiy ko‘chalar va Xorazmning boy madaniy merosi xorijlik ijodkorlarda ham katta qiziqish uyg‘otdi. Keyin “Sharshara” majmuasida forumning ijodiy ochilish marosimi bo‘lib o‘tdi. Ishtirokchilarga “Art House Hamsa” teatrining “Oydan-da go‘zal” nomli she’riy-musiqiy chiqishi namoyish etildi. Shu tariqa, Xivadagi uchrashuvlar boshlandi. Oldinda esa adabiyot, teatr, musiqa, tasviriy san’at va milliy hunarmandchilikka bag‘ishlangan sermazmun kunlar turgan edi.

Ertasi kuni “Arda Xiva” majmuasi tom ma’noda ijodiy muloqotlar maskaniga aylandi. Turli tadbirlar bir vaqtning o‘zida boshlangani uchun qaysi biriga ulgurishni bilmay qolganimiz ham bor gap.

Badiiy dasturning ilk daqiqalarida “Toqi sayhon” majmuasida “Oyparda” ko‘rgazmasi tantanali ravishda ochildi. Ayni paytda “Qurshov”ning Katta sahnasida Qozog‘istonning “Silk Stage” teatri “U – Ayol” saundramasini namoyish etdi. Tomosha qilganlar rosa ko‘kka ko‘tarib, og‘zidan bol tomib maqtashdi.

Boshqa maydonlarda ham ijodiy jarayon qizg‘in davom etardi. Feruza Muxamedova fortepiano sirlaridan saboq bergan bo‘lsa, O‘zbekiston xalq rassomi Bahodir Jalolov rassomlik san’ati haqida mahorat darsi o‘tkazdi. Zuhro Obloberdiyeva va Sanjar Nazarov kabi hunarmandlar esa yoshlarga milliy hunarmandchilik an’analari va kasb-kor sirlarini o‘rgatishga yeng shimarib, qattiq kirishib ketishdi. Ustasiga farqi yo‘q, hunarlarini ko‘z-ko‘z qilishdi, xullas.

Biz bo‘lsak, “G‘oli” ayvonida O‘zbekiston xalq shoiri Usmon Azimning suhbatidan bahramand bo‘ldik. Ustozning adabiyot, ijod va hayot haqidagi dilkash gurungidan so‘ng shu yerning o‘zida qizg‘in mushoira boshlandi. She’riyatga oshno qalblar rosa yayradi-da, yayradi!

Tushdan keyin qozog‘istonlik dramaturg Alisher Raxat “Drama-turgiyada hayot voqeligini badiiy talqin qilish” mavzusida ma’ruza qildi. Shu vaqtda Eshqobil Shukurning “Megapolisdan Himolaygacha” asari asosida sahnalashtirilgan spektakl ham tomoshabinlar e’tiboriga havola qilindi. Galereya maydonida rassom Madamin Xudoyberganov asarlari namoyish etildi, hunarmand Oliya Nurulloyeva esa amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazdi. Soat uch yarimlarda foto-ko‘rgazma bo‘ldi. Kun davomidagi uchrashuvlardan keyin “Qurshov”ning muhtasham zali yana san’at muxlislari bilan to‘ldi. Bu gal Qirg‘izistonning “Ustat-shakirt” an’anaviy teatr-studiyasi ijrosidagi “Aqsatqin bilan Mirza o‘g‘il” dostoni namoyish etildi.

Kechga yaqin san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori Azizxon Imomov va O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi, shoira Zebo Mirzolarning mahorat darslari bo‘lib o‘tdi. “Toqi sayhon” majmuasida esa opera xonandalarining konserti yangradi.

Bir kunning o‘zida shuncha san’at turi, shuncha ijodiy tajriba va qarashlar bir-biri bilan yuzlashdi. Forumning o‘ziga xosligi ham shunda edi, shoir she’ri, rassom mo‘yqalami, aktyor sahnadagi mahorati, hunarmand esa qo‘l mehnati bilan o‘zaro muloqotga kirishdi.

Forumning uchinchi kuni “Alma pishganda galin” ko‘rgazmasining namoyishi bilan boshlandi. Kichik sahnada “Shams-i-Qamar” teatri ijodkorlari “Jaydari Martin” dramasini, katta sahnada esa “Millat” teatri vakillari “Qo‘rqma” asarini tomoshabinlar hukmiga havola etdi.

Ayni paytda “G‘oli” ayvonida O‘zbekiston xalq yozuvchisi Erkin A’zam bilan, Galereya zalida esa O‘zbekiston xalq rassomi Fayzulla Ahmadaliyev bilan ijodiy suhbatlar bo‘lib o‘tdi. Ustozlarning har bir so‘zini yozib oldik. Nasib etsa, ular ham biror maqolaga mazmun bag‘ishlaydi.

Bir tomonda Ravshan Abdunazarov fortepiano kuylari bilan davrani qizdirayotgan bo‘lsa, boshqa tomonda Adolat Atamuratova va Muyassar Kuryazova yoshlarga milliy hunarmandchilik sirlarini o‘rgatardi.

Tushdan keyin “Chodra hovli” boloxonasi Xorazm viloyati san’at maktabi o‘quvchilari bilan gavjum bo‘ldi. Yosh iste’dodlar ochiq havoda rasm chizib, suhbatlashdi. Shundan so‘ng qirg‘izistonlik mutaxassislar Galina Ketova va Kenjegul Satibaldiyevalar zamonaviy teatr menejmenti hamda aktyorlik mahorati bo‘yicha o‘z tajribalari bilan o‘rtoqlashdi. Shu vaqtning o‘zida taniqli shoir Salim Ashur va G‘ayrat Majid boshchiligida mushoira boshlandi.

Ozarbayjonning “Characters” teatri namoyish etgan “Umid, so‘nggi oq turna” dramasi ham dasturning diqqatga sazovor chiqishlaridan biri bo‘ldi. Keyin san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori Zuhra Zaynutdinovaning mahorat darsi o‘tkazildi.

Kun davomidagi sahna asarlari, she’rlar va ijodiy muloqotlar kechqurun ham davom etdi. Ijodkorlar yig‘ilib, namoyish etilgan asarlarni ustoz san’atkorlar bilan birgalikda muhokama qildi, fikr almashdi. Bunday suhbatlarning qadri shundaki, ijodkor faqat o‘z asarini namoyish etibgina qolmay, boshqalarning qarashlarini eshitadi, tajriba orttiradi va yangi g‘oyalar bilan boyiydi. Fotomuxbir Behzodbek Saidov esa forumning ana shu lahzalarini o‘n sakkizta betakror kadrdan iborat fotoreportajda muhrladi.

Nihoyat, 25-oktyabr – forumning so‘nggi kuni ham mazmunli dastur bilan boshlandi. “Paxsa” ko‘rgazmasi ochilib, san’atshunos olimlar va rassomlarning mahorat darslari o‘tkazildi. Kun davomida “Kichkina”, “Art House Hamsa”, Turkiyaning “LayLa” hamda “Shams-i-Qamar” teatrlari birin-ketin spektakllar namoyish etdi. Ayniqsa, O‘zbekiston xalq yozuvchisi Xayriddin Sultonning “Yaldo kechasi” romani asosida sahnalashtirilgan spektakl tomoshabinlar mehrini qozondi.

Dastur doirasida milliy kashtachilik asosida yaratilgan liboslar namoyish etildi. Xorazmning yosh rassomlari asarlari asosida “Daryo” nomli immersiv ko‘rgazma ham tashkil qilindi. Shunday qilib, to‘rt kunlik xalqaro ijodiy muloqot o‘z yakuniga yetdi. Kechki soat yettida “Arda Xiva” majmuasi amfiteatrida forumning tantanali yopilish marosimi bo‘lib o‘tdi.

Alqissa, “Oydin gurunglar” – adabiyot, teatr, tasviriy san’at va hunarmandchilik vakillarini qo‘llab-quvvatlash, ularning bebaho mehnatiga moliyaviy va iqtisodiy tayanch yaratish maqsadida tashkil etilgan ezgu tashabbusdir.

Shahriyor SHAVKAT

Jadid
adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

Bosh muharrir:
Iqbol MIRZO

Muallif fikri tahririyat fikri bilan mos kelmasligi mumkin.

Tahririyatga yuborilgan maqolalar muallifga qaytarilmaydi va ular yuzasidan izoh berilmaydi.

Gazeta 2023-yil 26-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 195115 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Adadi – 18 157
Shundan:
Kirill yozuvida – 6 591
Lotin yozuvida – 11 566
Media kuzatuvchilar – 90 284
Buyurtma: G – 1040
Hajmi: 4 bosma taboq, A2.
Nashr ko‘rsatkichi – 222.
Tashkilotlar uchun – 223.
1 2 3 4 5 6

Mas’ul kotib: Shuhrat Azizov

Navbatchi muharrir:
Muhayyo Rustamova

Sahifalovchilar:
Erkin Yodgorov
Nigora Tosheva



Manzilimiz:
Toshkent shahri,
Shayxontohur tumani,
Navoiy ko‘chasi, 69-uy

Telefonlar:
Qabulxona: (71) 203-24-20
Devonxona: (97) 745-03-69
jadidgzt@mail.ru (71) 203-24-17
Jadid_gazetasi@exat.uz

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi.

Bosmaxona manzili:
Toshkent shahri,
Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Bosishga topshirish vaqti: 21:00
Bosishga topshirildi: 21:20

Sotuvda narxi erkin.

www.jadid.uz

Muassislar:

O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI

RESPUBLIKA MA’NAVIYAT VA MA’RIFAT MARKAZI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI

MILLIY MASS-MEDIANI QO‘LLAB-QUVVATLASH VA RIVOJLANTIRISH JAMOAT FONDI

“SHAHIDLAR XOTIRASI” JAMOAT FONDI